

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AJINYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Sh. Bo`ranova., G.Yusupova., K.Baymenova

DIKTANTLAR TO`PLAMI

*(Ta'lif qoraqalpoq tilida olib boriladigan
umumta'lim maktablari uchun qo'llanma)*



NUKUS 2018

Tuzuvchilar: Sh. Bo`ronova, G.Yusupova., K.Baymenova

“Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-9-sinflari uchun diktanlar to`plami” 2020, 75 bet.

Mazkur uslubiy qo`llanmada ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o`zbek tilini o`qitish jarayonida o`quvchilarni ta’lim jarayonida o`zbek tilidan olgan bilimlarini nazorat shakli bo`lmish diktant turlari va ularni tashkil etish usullari xususida so`z yuritiladi. Shuningdek, 5-9-sinflar uchun diktant turlari bo`yicha matnlar to`plamini keltirdik.

Qo`llanma o`zbek tili va adabiyoti o`qituvchilari, o`zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bakalavr yo`nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo`ljallangan.

Ma’sul muharrir:

M.Xudayarova – Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O`zbek tilshunosligi kafedrasi o`qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

A.Madaminov – Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi

D.Xalmuratova – 38 sonli mакtabning o`zbek tili va adabiyoti fani o`qituvchisi

Qo`llanma Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashining
2017 yil 18 may №8 sonli bayonнома qарори билан
нашрга тавсиya etilgan.

Kirish

Maktab jamiyatning kelgusi avlodlarini tarbiyalab yetishtiradi, uni tamomlagan o`quvchi ijtimoiy hayotdan o`rin oladi. Bunda unga ayniqsa, ona tilidan (o`zbek tilidan) bilganlari, to`g`ri yozish va o`qish malakalari, mazmunli va chiroyli so`zlash san`ati, ish qog`ozlari bilan muomala qila olish o`quvi qo`l keladi.

Ona tilini (o`zbek tilini) yaxshi o`zlashtirish, ko`p o`qish va yozishga ham bog`liqdir. O`qituvchining bayonini tinglash yoki taxtaga yozilganlarini ko`rish bilangina ona tilini mustahkam o`zlashtirib bo`lmaydi. So`z va gaplarni to`g`ri qo`llay olish o`quvchidan katta aqliy faoliyat va kuch talab qiladi. O`quvchining butun diqqati tovushlar, harflar, so`z va uning shakllari, so`z birikmali, gaplar va ularning tinish belgilarida bo`lmog`i zarur. To`g`ri yozishga o`rgatishda yozma mashqlar bilan og`zaki mashqlarning mutanosibligiga erishish lozim.

Umuman olganda, o`quvchilarning yozma va og`zaki nutqini o`stirishda diktant ning ahamiyati katta. O`quvchi diktant yozayotganda xato qilmaslik uchun orfografik va punktuatsion qoidalarni eslashga, ularni ko`z oldiga keltirishga harakat qiladi. Ba`zi metodik qo`llanmalarda diktant ta`limiy va tekshiruv diktantlariga ajratiladi. Bunday ajratish shartli, albatta. Mana shu yuzasidan biz uning ayrim namunalarini keltirib o`tamiz.

5-sinflar uchun Ta’kidiy diktant

1-namuna. Maqollarni o`qing. Belgilash olmoshlarining ma’nosи va imlosiga e’tibor bering.

- Har ish me’yorida yaxshi.
- Har ne kelsa boshingda tilingdan kelur.
- Har kechaning bir kunduzi bor.
- Har bir narsa ingichka joyidan uziladi.
- Har kim o`z qilmishidan topar.

2-namuna. Egalik qo`shimchasining qo`shilishi natijasi asosda bo`layotgan o`zgarishlarga diqqat qiling va imlosiga ahamiyat qarating.

- ✓ Og`ziga kelganni gapirmoq nodonlar ishi.
- ✓ Do`stingning yutug`i – sening yutug`ing.
- ✓ Tiling bilan ko`nglingni bir tut.
- ✓ Aqlli odam har doim o`z o`rnini bilib o`tiradi.
- ✓ Ilon zahridan tilning zahri o`tkirroq.

3-namuna. Jumlalarni o`qing. Kelishik qo`shimchalarining ishlatilishiga e’tibor qiling.

Ko`zingni katta och. Og`zingni zakovot nuri bilan yoritib ko`r. Menga donishmandlarning bitta hikmatli so`zi ma’lum: «Bilimdon o`z bilimi tufayli ofatlardan omon qoladi». Uquvsiz kishining ishi yurishmaydi. Hurmat – kishining uquv-idrokidan keladi.

4-namuna. Matnni o`qing va yozing. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarning ma’nosini eslab qoling.

Qish

Kumush qish kirib keldi. Hamma yoqni oppoq qor qopladi, suvlar muzladi. Daraxtlar oppoq libos kiydi. Bolalar issiq kiyindilar. Ular chana va konki uchdilar.

Qish – juda go`zal fasl.

5-namuna. Tez aytishlarni o`qing va yozing. Sonlarning so`zda ifodalanishini ta’kidlang.

- ❖ Yetti to`ti, mitti to`ti, yetmishtaga yetdi to`ti.
- ❖ Tal’at tog`am to`rt tog`ora tog`olcha terdi.
- ❖ Xoltoy Nortoyni Oltoyda olti oy oldin ko`rgan.

IZOHLI DIKTANT

1-namuna. O`qing. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarga so`roq berib, ularning qaysi so`z turkumiga oidligini izohlang.

Eng katta hayvon

*Dunyoda eng katta **hayvon** ko`k kitdir. Uning uzunligi o`ttiz metrdan oshadi. Bu ketma-ket qo`yilgan **oltita** fildan uzunroqdir.*

*Bitta ko`k kitning og`irligi o`ttizta fil og`irligidan ko`proq bo`lib, bir yuz ellik tonnagacha yetadi. Bitta ko`k **kit** yettida vagonga yuk bo`ladi.*

(«G`uncha»)

2-namuna. Maqollarni o`qing va yozing. Mazmunini o`z so`zingiz bilan izohlang.

1. *Odobli o`g`lon sizlar,
Beodob otasin senlar.*
2. *Sizlagan siylanadi,
Senlagan qarg`aladi.*
3. *«Siz» qalbni ochar,
«Sen» eshik yopar.*
4. *«Sen» ham, «Siz» ham bir og`izdan chiqadi.*

3-namuna. Ajratib ko`rsatilgan ko`makchilarini – **dan**, - **ga**, **da** qo`shimchalaridan biri (mosi) bilan almashtirib, gaplarni ko`chiring. Bu gaplarni o`zaro qiyoslab, mazmun farqini izohlang.

- * Bularning barchasi siz **uchun**.
- * Chigit ekish **uchun** tayyorgarlik ko`rildi.
- * Shu kichik yo`lak **orqali** o`tsangiz katta ko`chaga chiqasiz.
- * Bu yangilikni televizor **orqali** eshitdik.

4-namuna. Matnni o`qing. Nuqtalar o`rniga egalik qo`shimchalaridan mosini qo`yib ko`chiring, ularga izoh bering.

Bobur sandiqdan oq ipak matoga o`ralgan qilichini oldi.

–Humoyun, o`g`il..., mening qancha umr...qolgani xudoning o`ziga ayondir. Sohibqiron bobokalon...ning mana shu qilich...ni endi sen taqmoq... kerak. Bu qilichga “Kuch adolatdadur” degan so`zlar bitilgan. Doim odil bo`lgan-u mag`lub bo`lmasin!

Bobur qilichni o`g`il...ga ikki qo`llab uzatdi. Humoyun tabarruk qilichini tiz cho`kib oldi-da, uning muqaddas yozuv bitilgan joyini ko`zlar...ga surtib o`pdi.

(P. Qodirov)

5-namuna. Ko`chiring. Olmoshlarni aniqlang, ularning imlosini tushuntiring.

Baxtni har kim o'zicha tushunadi. Kimlarning qorni, ust-boshi but. Shuni baxt sanaydi. Kimlardir yeng uchida yashaydi. Ko`ngli tinch.

Siz o`z ota-onangizning jigargo`shalarisiz. Bu kam. Siz o`z xalqingiz, vataningiz, millatingizning ko`z qarog`larisiz, ammo unutmang: tanbal, daqqi, bezori kishi ma'naviy nogiron degan so`z. Unda hech kishining ko`zi uchib turgani yo`q. O`zi uchun, qorni uchun yashab, nafs gadosi bo`lib yurganlar jamiyat uchun ortiqcha odamlardir. Bunday nusxalarning bor-yo`qligidan hech kimga hech qanday foyda yoki zarar yo`q.

Komil inson hammaning joni.

LUG`AT DIKTANT

1-namuna. So`zlarni alifbo tartibida daftaringizga yozing.

Sabzavot, poytaxt, zangori, jonajon, manzil, ilhom, albatta, botanika, hasharot, uzum, bahor, oila, xonardon, dugona, barkamol, hunar, mehnat, tinchlik.

2-namuna. Quyidagi so`zlarning imlosiga diqqat qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Madhiya, mustaqillik, olimpiada, shaxmat, murabbiy, o`rtoq, jihoz, tarbiya, taassurot, iste'dod, oshxona, qahramon, kamtarlik, navqiron, manzil, tabiat.

3-namuna. Quyidagi so`zlarning yozilishiga diqqat qiling va ko`chiring. Shu so`zlar asosida kichik hikoya tuzing.

Sayr, sayohat, xiyobon, vodiy, viloyat, xushmanzara, hayvonot, ziyyarat, qadamjolar, orombaxsh.

4-namuna. Quyida berilgan otlarga egalik qo`shimchalaridan mosini qo`yib o`qing va yozing.

Da'vo, jazo, imzo, a'zo, imlo, imo, bino, sarpo, duo, podsho, baho, hayo, ashyo.

5-namuna. Quyidagi izohli lug`atni alifbo tartibida joylashtiring.

Ziyarak-tez fahmlaydigan, zehni o`tkir, sezgir

Sher-yirtqich hayvon; arslon.

Sabo-ertalabki yengil salqin shamol, tong shabadasi.

Rivoyat- avloddan-avlodga o`tib kelayotgan og`zaki hikoya; naql, afsona.

Adib-adabiy asarlar yozish bilan shug`ullanuvchi kishi, yozuvchi.

Farz- har bir kimsaning bajarishi majburiy va zarur bo`lgan burchi, vazifasi.

Bahaybat-juda katta, ulkan.

Kollej- yangi tipdagi o`rta maxsus o'quv o'rni.

Inoq- o`zaro do`stona munosabat.

Muhtaram- hurmatli, aziz.

SAYLANMA DIKTANT

1-namuna. Matnni ko`chiring. Kelishik va egalik qo`shimchalarining tagiga chizing.

Dars

O`zbek tili darsi juda qiziqarli o`tadi. Biz bu darsni yoqtiramiz. O`qituvchimiz Ozoda Nabiyevna juda yaxshi tushuntiradilar, ko`p narsa o`rgatadilar. O`zbek tili darsida biz matnlarni o`qiymiz, mashqlarni yozamiz, so`zlarni talaffuz qilamiz, she`rlarni yodlaymiz.

2-namuna. Xato yozilgan egalik va kelishik qo`shimchalarini to`g`rilang va ko`chiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Meni ona diyorim, uyning chiqmoq, ilmdan mehr qo`ymoq, fanni ravnaqi, kitobga o`qimoq, bilimdonlarni siri, olimlarga so`ramoq, ilmnинг o`rganmoq, ilmga bahra olmoq.

3-namuna. Matnni o`qing . Ajratilgan so`zlarga e'tibor bering. Tabib bolaga nima deganini og`zaki aytib bering.

Abu Ali ibn Sino

Ulug` bobomiz Abu Ali ibn Sinoning huzuriga bir kishi bemor o`g`lini olib kelibdi va yordam berishini so`rabdi. Tabib bolaning tomirini ushlab ko`rib debdi:

-Bolam, ko`proq kul, badantarbiya bilan shug`ullan, suvda suz, piyoda yur, tez-tez sayohatga chiq, ozoda bo`l. Shunda tuzalib ketasan.

4-namuna. O`qing. Sonlarni o`zi bog`langan ot bilan birga ko`chiring.

OILAMIZ

Men Navoiy ko`chasidagi yigirma sakkizinchı uyda turaman. Bir yuz o`n beshinchi maktabning beshinchi sinfida o`qiymen. Opam shu maktabning sakkizinchı sinfida, akam oltinchi sinfida o`qiysi. Singlim- ikkinchi sinf o`quvchisi. Kichik ukam qirqinchi bolalar bog`chasida tarbiyalanadi.

Onam- shifokor. U oltinchi bolalar kasalxonasida ishlaydi. Otam- o`qituvchi. U sakson to`rtinchi maktabda ishlaydi.

5-namuna. Matnni o`qing. Ajratib ko`rsatilgan so`zlar qaysi turkumga kirishini ayting va ularni ko`chirib tahlil qiling.

Qadim zamonda **cho`qqilar** bulutga tegadigan tog` etagidagi **qishloqda** Qodir ismli yetim **bola** yashagan. U podachilik qilardi.

Bir kuni **Qodir** qamishdan **ajoyib** nay yasab, chalishni o`rganibdi. U asta-sekin nay chalishga usta bo`libdi. Musiqa ilmini yaxshi o`rganish maqsadida safarga chiqibdi. Yo`lda u yo`lovchilardan usta sozandani qayerdan topishni **surishtiribdi**. Bir shaharda mashhur xalq hofizini uchratibdi va **unga** maqsadini aytibdi. Bu hofiz usta sozanda ham ekan. U hofizning qo`lida **to`qqiz** yil astoydil o`qibdi **va** usta sozanda bo`lib yetishibdi.

(T. G`oyipov)

ERKIN DIKTANT

1-namuna. Olmoshlarni toping, ularni o`zgartirib yozishga harakat qiling.

Maqtanchoq g`oz

(masal)

Bir g`oz suvda suzib yurib, o`ziga-o`zi maqtanibdi: «Olamda mendan hunarmand qush yo`q, yerda yuguraman, suvda suzaman, havoda uchaman. Bir o`zimning uch xil hunarim bor». G`ozning bu so`zini bir Qurbaqa eshitib: «O`rtoqjon, sen muncha maqtanmasang ham bo`lar edi. Chunki baliqdek suzolmaysan, kiyikdek yugurolmaysan, lochindek ucholmaysan. Chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing yaxshi edi» - dedi.

Xalqimizda shunday gap bor: «*Maqtanma, g`oz, hunaring oz*».

2-namuna. Quyidagi hikoyani o`qing, tegishli xulosa chiqaring. Mazmuni yuzasidan o`z fikrlaringizni bayon qiling.

Do`stlik – oltindan qimmat

Oqil bobo hikoya qiladi. Bir qishloqda ikki oshno yashar ekan. Birining oti Husan, ikkinchisiniki Muhammad ekan. Ular juda inoq ekan.

Husan kasal bo`lib, o`rnidan turolmay qolibdi. Yosh yigitning umri tugayotganiga O`limning ichi achishib, «Sen yashashing kerak. Qani, men eng yaqin kishingdan-onangdan senga umr so`rab ko`ray-chi»-debdi.

Husan rozi bo`libdi. Shundan so`ng O`lim yigitning onasiga murojaat qilib: «Ey, ona, sevimli bolangni yaxshi ko`rsang, umringdan ozginasini unga bergen» - debdi. Lekin ona boshqa farzandlarini o`ylab, bu taklifga rozi bo`lmabdi. Shundan keyin O`lim Husandan: «Eng yaqin kishilaringdan yana kim qoldi ? » - deb so`rabdi. – «Muhammad degan bir do`stim bor», - deb javob beribdi Husan.

O`lim Muhammadning oldiga borib, bor gapni aytibdi. Do`stiga ichi achigan Muhammad: «Urimning ozginasini emas, do`stim uchun yarmini olaqol!» - debdi. Bu gap O`limning ham ko`nglini yumshatibdi. Husanni saqlab qolishga ahd qilibdi.

O`lim Hayotning oldiga boribdi. – Sen bilan biz ashaddiy yovmiz. Lekin bir yigitning umri tufayli sening oldingga keldim. O`sha yigitga Muhammad degan do`sti

umrining yarmini berishga va'da berdi. Marhamat qil, ularga ko`proq umr bergen. Men ham shunga roziman – debdi O`lim.

Bu taklifga Hayot rozi bo`libdi. Muhammadning umridan qarz olinmasdan, Husanga qo`shimcha hayot beribdi. Shunday qilib ikki do`sning bir-biriga sadoqat va inoqligi o`limni ham chekintiribdi.

Darhaqiqat:

*Oshnolar bo`lishga chin qadrdon,
O`limni yengishga topilar imkon.*

3-namuna. O'qing. O'rinn-payt kelishigi shaklidagi so`zni aniqlang va uni hokim so`z bilan birga ko`chiring. Matn mazmunini shu taqlidda davom qiling.

Inson umri davomida o`ziga sodiq do`stlar orttiradi. O`g'il ham, qiz ham, kim bo`lishidan qat'iy nazar, o`z faoliyatida, o`qishda, odamlar orasida o`ziga fe'li, muomalasi bilan yoqib qolgan kishi bilan do`stlashadi.

Do`slik nihoyatda nozik bo`lib, uni asrab-avaylash lozim. Do`slik insonning bolalik davrida boshlanadi. Bolalikdan boshlangan do`slik odamzotning keyingi ulg`aygan va kamolotga erishgan davrida orttirgan barcha do`satlari orasida alohida o`rin tutadi.

(T. Qurbanov)

4-namuna. She'rni ifodali o'qing, ajratib ko`rsatilgan so`zlarni eslab qoling. Shu so`zlarni qatnashtirib, she'rdan olgan taassurotingizni yozma bayon qiling.

TINCHLIK

Yer yuzida
Tinchlik bo`lsin
Olam doim
Baxtga to`lsin.
Nurli quyosh
Porlab tursin
Osmon doim
Ko`m-ko`k b`lsin
Biz, bolalar,
O`ynashaylik.
Qo`l ushlashib
Kuylashaylik.
Biz Vatanning
Erkasimiz.

Shu diyor
Ertasimiz.

(Zebuniso Sattorova)

5-namuna. Eshitganlaringizni o`qiganlaringizga tayanib, quyidagi savollarga erkin tarzda javob yozing.

1. *O`zbek tiliga qachon davlat tili maqomi berildi?*
2. *Siz “Davlat tili” tushunchasini qanday tushunasiz?*
3. *Nima uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qoraqalpoq tili va o`zbek tillari davlat tillari sanaladi?*
4. *Davlat tili Qonuniga qanday amal qilinadi?*

XOTIRA DIKTANT

1-namuna. She'rni yod olib yozing. Ona tili haqida nima deyilganini so`zlab bering.

Ona tilim

*Sen millatning mulkisan,
Chiroylisan, ko`rkamsan.
Fe'l-atvori, ruhini,
Aks ettirgan ko`zgusan.*

*Sensiz na ilm bo`lar,
Sen bo`lmasang so`zlarning.
Bag`ri ming tilsim bo`lar,
Mening shohona tilim.*

*Donishmand dono tilim,
Asr durdona tilim.*

(Barot Yarash)

2-namuna. Yoddan yozishga tayyorlaning. Kelishik va egalik qo`shimchalarini ko`rsating.

*Tog`laringda kezganman,
Bog`laringda kezganman.
Ona diyor, mehringni,
Har qadamda sezganman.*

*Sevdik seni umrbod,
Sen borsanki ko`ngil shod.
Ne buyursang biz tayyor,
Biz-baxtiyor yosh avlod !*

(Sh.Sa'dulla)

3-namuna. Amir Temur o`gitlarini ko`chiring. Kelishik shakllarini aniqlang va tagiga chizing. O`gitlarni yod oling.

Jabr-zulmdan o`zingni uzoq tut. Senda biron kishining haqi bo`lsa, haqini unutma. Agar sizlar bir tan, bir jon bo`lsangiz, sizga adovat qilganlarni yengasiz. Kimki senga do`stlik qilsa, do`stligi qadrini unutma. Unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko`rsat. Ko`p narsani bilib tursang-da o`zingni bilmaganga sol.

4-namuna. Tez aytishlarni o`qing va yozing. So`ngra yoddan aytib mashq qiling.

- *Sozanda sozini soz chaldi.*
- *Davron darvozaga to`rtta to`p tepdi.*
- *Ahmad Rahmatga shaxmat berdimi?*
- *Rahmat Ahmadga shaxmat berdimi?*
- *Shoira sho`rvani shoshib shimirdi.*
- *Samandar samanda sayr etdi.*

5-namuna. Harflarni farqlang, diqqat bilan kuzating va yoddan yozing.

X	H
Xizmat	Halol
Xiyobon	Hasharot
Xirmon	Hayot
Xayol	Hikmat
Xotira	Himoya
Xotirjam	Hunar
Xushmuomala	Hosil
Xazina	Hudud
Xartum	Himmat
Xonadon	Harorat

IJODIY DIKTANT

1-namuna. Nuqtalar o`rniga zarur olmoshlarni qo`yib ko`chiring.

1.yozgi oromgohda dam oldik. 2.shaxmat to`garagiga yozildilar. 3.sen bilan uchrashamiz. 4.yo`ldan tez o`tib ketdi. 5. Qoraqalpoq shoirlaridanbilasiz? 6. Yosh rassomchizgan rasmlarini ko`rsatdi.

2-namuna. Berilgan so`zlar ishtirokida gap tuzing.

1. *Pishdi, mevalar, g`arq, kuzda.* 2. *Qovunlari, Qoraqalpog`iston, olamda, mashhur.* 3. *Faslda, bu, kirsangiz, ko`zingiz, qamashadi, boqqa.* 4. *Meva,*

yig`im-terimida, qatnashamiz, biz ham. 5. Dalalarda, qizg`in, oppoq, yig`ish, paxtalarni, bo`ladi, pallasi.

3-namuna. Quyidagi masalni o`qing. Mazmunini ijodiy o`zingiz mustaqil ravishda yozing.

Chumoli

(masal)

*Bir chumoli mittijon,
Chopadi u yon – bu yon.
Yukim demay kattakon,
Uychasiga tashir don.
Yuguradi erta-kech,
Charchashni bilmaydi hech,
Qarang, ba'zan cho`p tashir,
Cho`p tashir, ham ko`p tashir.
Balki yangi uy qurar,
Shu sababdan yugurar?
U ertaning g`amin yer,
«Mehnat tagi rohat», der.*

T.Soliev

4-namuna. Quyidagi matnni o`qing. Mazmuni bo`yicha mustaqil fikrlaringizni davom ettiring.

Nukus

Nukus Qoraqalpog`iston Respublikasining poytaxti. Bu shahar juda go`zal va obod. Shaharda qoraqalpoqlar bilan birga o`zbeklar, qozoqlar, turkmanlar va boshqa millat vakillari istiqomat qilishadi. Ular do`scht va ahil yashashadilar.

Nukusda juda ko`p ko`rkam binolar bor, ulardan biri Qoraqalpoq xalq muzeyidir. Muzeydan qoraqalpoq xalqining o`tmishi, buguni va ertasi haqida juda ko`p ma`lumotlar olish mumkin...

5-namuna. “Mustaqillik o`gitlari” ni ko`chiring. O`zingiz ham istiqlolga doir fikrlaringizni davom ettiring.

1. Adolat kuchda emas, kuch adolatdadur. 2. Dunyoda o`zbek zaminiga teng keladigan zaminning o`zi yo`q. 3. Mehr va qadr bor yerda hamma narsa bor. 4. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. 5. Vatan har bir insonning yuragida, qalbida bo`lmog`i lozim.

Grammatik topshiriqlı diktant

1-namuna. O`qituvchi ertakni o`qib beradi, o`quvchilar yozadilar. Undagi o`tgan zamon hikoya fe`li va o`tgan zamon aniq fe`lini aniqlaydilar.

Ikki bug`u

(ertak)

Kunlarning birida ikki bug`u o`tloqda yurib, jilg`a bo`yida o`sgran maysani talashib qolishibdi.

- Men avval keldim, u meniki, - debdi bittasi.

Ikkalasi suzisha boshlabdi. Uzoqdan chopib kelib, bir-biriga qars-qars shox tashlayverishibdi. Oxiri ularning shoxlari bir-biriga chalishib qolibdi. Nihoyat, butunlay holdan toyib, ikkovining qimirlashga ham kuchlari qolmay, taxtaday qotib turaveribdi. Shu yaqindan o`tib ketayotgan ovchilar ularni ko`rib, behad xursand bo`lishibdi va ikkala urushqoqni aravaga ortib olib ketishibdi.

2-namuna. Matnni o`qing. Sifatlarni toping va tagiga chizing.

Kamalak

Yomg`ir yog`ib o`tgach, quyoshga qarama-qarshi tomonidan kamalak hosil bo`ladi. Quyosh ufqqa qancha yaqin bo`lsa, kamalak shuncha yaqin ko`rinadi. Kamalakning tashqi ko`rinishi qizil, ichki qismi binafsha rangda ko`zga tashlanadi, unda boshqa ranglar to`lqin uzunligiga qarab joylashadi.

(O`zbek qomusidan)

3-namuna. Qavs ichida berilgan olmoshlarni gapning mazmuniga mos holda kelishiklar bilan turlab, gaplarni ko`chiring.

1. Haqiqiy do`sst topsang, (u) sodiq bo`l. 2. Agar do`ssting (sen) aybingni aytib, nasihat qilsa, sen (u) minnatdor bo`l. 3. Gulni bobom (men) uzgan ekanlar. 4. Muqaddam opa, (siz) chin yurakdan rahmat.

4-namuna. Nuqtalar o`rniga qaratqich va tushum kelishiklarining qo`shimchalaridan mosini qo`yib, matnni o`qing. Ajratib ko`rsatilgan so`zlar qaysi turkumga kiradi?

Bobokalon shoirimiz

Biz Alisher Navoiy ...(-ning, -ni) yaxshi bilamiz. 2. Navoiy biz ... (-ning, -ni) buyuk shoirimiz, olamga yaxshilik urug`i(-ning, -ni) sochgan mehribon bobomizdir. U bundan besh asr burun yashagan.

Alisher Navoiy o`z bilimi(-ning, - ni) odamlarga yaxshilik qilishga sarfladi. Navoiy juda ko`p kitob yozgan. Alisher Navoiy(-ning, - ni) o`lmas asarlari uning nomi ... (-ning, ni) butun olamga mashhur qilgan.

5-namuna. Raqamlarni so`z bilan yozib, matnni ko`chiring.

Shaxmat tarixidan

Shaxmat o`yini bundan 1500 yil avval Hindistonda paydo bo`lgan. Uni dastlab «Chaturanga» deb atashgan. Chunki bu o`yinda 4 kishi ishtirok etgan («chatur» - to`rt degani). Keyinchalik o`yinda 2 kishi qatnashadigan bo`ldi. Nomi ham o`zgartirilib, «Shatranj» deb yuritila boshlandi («shatr» - ikki degani). Shaxmat nomi esa Eronda vujudga kelgan. «Shoh mot» - shoh o`ldi, degan ma`noni anglatadi.

Shaxmat o`yini Yevropaga VIII-IX asrlarda yetib keldi. 1986-yilda shaxmat o`yini bo`yicha jahon birinchiligining 100 yilligi nishonlandi.

(«G`uncha»)

NAZORAT DIKTANT

Amir Temur

Amir Temur Shahrisabzga yaqin qishloqda tug`ilgan. Temur yoshligidan epchil, dovyurak bo`lgan. U ayniqsa, otda yurishni, uloqni yaxshi ko`rgan. Bobosi unga toy olib bergen. Temur toyni yaxshi parvarish qilgan.

Temur o`rtoqlari bilan poyga qilganda doimo birinchilikni olgan. U bir necha marta otdan yiqilib tushsa ham, baribir o`zini mardlarcha tutgan. Temur o`sdi, ulg`aydi. U yurtga bosh bo`ldi, chiroyli binolar quzdirdi, bog`lar yaratdi. El-yurtni dushmanlardan himoya qildi. Shuning uchun ham bobomiz Amir Temurning nomi mashhur. Yaxshidan nom qoladi.

Kim polvon?

Lotifjon kuchli bola edi. Kuch sinashganda o`tiradigan kursini bir oyog`ida turib, bemalol yerdan ko`tara olardi. Kurashda-ku u yengmagan bola yo`q. Ko`pincha Husniddin bilan kuch sinashadi.

Bir kuni maktab hovlisida ikkalasi yana kurash tushishdi. Bu gal Husniddin yengdi. Lotifjonning g`azabi qo`zg`ab, sinfga kira solib, Husniddingga bir musht tushirdi.

Husniddinning burni qonadi, kiyimlari bulg`andi. Bundan butun sinf bolalari xafa bo`ldi. O`qituvchi Lotifjonga tanbeh berib shunday dedi:

- Birovni kurashib yiqitgan polvon emas, balki g`azablangan vaqtida o`zini bosa olgan odam polvondir.

Til bilgan xor bo`lmas

Kunlarning birida Karimboy bilan Omonboy mактабдан келяётган edi. Angliyadan kelgan mehmon ulardan kitob do`konining qayerda joylashganligini so`radi. Omonboy mehmonning savollariga tushunmadi va go`yo eshitmagandek bo`lib turaverdi. Karimboy esa ingliz tilida kitob do`konining qayerda joylashganligini aytdi. Mehmon unga minnatdorchilik bildirib, qoraqalpoq tilida «rahmet» deb qo`ydi.

Bu voqeадан Omonboy uyaldi, Karimboy esa mamnun bo`ldi.

Do`s t qadriga yeting

Ey, farzand, hamma vaqt do`s tutmoqni odat qil. Do`sting ko`p bo`lsa, yueling yengil bo`lur. Ishing o`ngidan kelur. Do`s tlaringga muruvvatli, shavqatli bo`lgin. Do`s tlaringdan hech narsani ayama. Do`stingning tashvishi sening tashvishing bo`lsin. Do`ssti ko`p odamlar baxtli hisoblanadilar. Do`s bo`lish oson, lekin uni saqlash qiyin.

(Kaykovus)

Bobur bog`i

Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sulton-i-podshosi bo`libdi. U Hindistonning ko`rkam joyiga bir katta bog` barpo ettiribdi. Dunyodagi bu eng katta bog`ga turli yurtlardan olma-yu gilos, anor-u anjir, jiyda-yu yong`oq, pista-yu bodom, nok, uzum-u o`rik, behi-yu xurmo, ko`ksulton-u olxo`ri kabi mevalardan; har xil gullardan olib kelib ko`kartiribdi.

Xalq dunyoga dong`i ketgan bu ulkan bog`ga “Bog`i Boburiy”-“Bobur bog`i” deb nom qo`yibdi.

(M.Murodov, M.Shayxov “Asotirlar va rivoyatlar”)

6-sinflar uchun

Ta`kidiy diktant

1-namuna. Matnni o`qing, ajratib ko`rsatilgan so`zlarga e`tibor bering.

Tinchlik nima?

Ozodaning buvasi: «*Sog`-salomat bo`linglar. Doim tinchlik bo`lsin!*» - deb duo qiladi va nevaralariga shunday deydi: «*Urush – bu, dahshat va ofat. U necha minglab odamlarni, shahar va qishloqlarni vayron qildi. Minglab bolalar yetim bo`lib qoldi.*

Tinchlik – bu baxt, bu hayot, eng ezgu niyat. Bolalarim, siz doim inoq, do`s bo`lib yashang!».

Ozoda va Aziz ertasiga sinfdoshlariga buvisining gaplarini aytib berishdi. Bolalar urush va tinchlik so`zining ma’nosini tushunib oldilar.

2-namuna. Otlarni aniqlab, shahar nomlarini ko`rsatuvchi otlarni ko`chirib yozing.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari juda qadim zamonlardan dunyoga mashhur bo`lgan. Olis asrlarda bu shaharlar Xitoydan Ispaniyagacha, Yevropadan Hind okeanigacha aloqa bog`lagan.

Bu shaharlar ulug`vor me’morchilik obidalari bilangina shuhrat qozonib qolmay, ayni paytda butun dunyoga mutafakkir va ijodkorlar yetishgan joylar ham bo`lgan. Samarqandni o`z davlatining poytaxti qilgan buyuk Temur olimlarga, shoirlarga va mashshoqlarga homiylik qilish bilan shuhrat qozongan.

3-namuna. Xato yozilgan so`zlarni to`g`rilab, matnni ko`chiring. So`zlarning imlosini tushuntiring. Matndagi g`oyani tahlil qiling.

G`azapdan o`zingni asra, chunki g`azab tufayli inson o`z ishlarini, ezgu maxsadlarini unitadi.

Mol-dunyoga hirs qo`yma, oshko`z bo`lma. Ezgu ishni ko`z-ko`z qilma. Maxtanchoq bo`lma.

O`z ruhing bilan ziddiyatga tushmaslikning birdan-bir yo`li foydali mehnatdir.
(«Ezgu o`y, ezgu so`z, ezgu amal» kitobidan)

4-namuna. Manni o`qing va ko`chiring. Fe’llarni topib, ularni mayl, nisbat, zamon shakllarini belgilang.

...Alisher o`rtog`ining aytganini eshitmadi shekilli:

-Ov qilmoq, merganlik-ermak narsa, lekin eng zo`r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko`p sirlarini maktab o`rgatadi.

Suhbatning bunday keskin o`zgarganidan shoshib, bir on jim qolgan bolalarning kattarog’i:

-Kim o’rgatdi senga bu gaplarni?-deb so’radi Alisherga tik qarab.

-Bilaman-da, otam hamisha “olim odam xor bo`lmaydi”,-deydilar.

(Oybek)

5-namuna. Berilgan joy nomlarining tuzilishi va imlosini tushuntiring.

Surxondaryo, Buloqboshi, To`rtko`l, Qorovulbozor, Amerika Qo`shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Marjonbuloq, Jarqo`rg`on, Markaziy Osiyo, O`zbekiston Respublikasi.

IZOHLI DIKTANT

1-namuna. Matndagi otlarning ma`no guruhlarini aniqlang va izohlang.

Sport

Sport - maqsadli harakat, ilmiy asoslangan, sinovlardan o`tgan harakat. Shu bois u jismni chiniqtiradi, kuch beradi. Ertalabdan kechgacha daladan quti-quti pomidor, bodringni yelkaga ortmoqlab chiqish sport emas, ammo tosh irg`itish, tosh ko`tarish – sport, chunki unda qoidali harakat qilinadi.

(Sh.Xojaniyazova)

2-namuna. Tez aytishlarni aytib, mashq qilib ko`ring. Nutqingizni o`stiring. Gaplar ichida sifatlarni topib, ularga izoh bering.

1. *Norning nordon anori narida.*
2. *O`tkir o`tkir o`roqda o`t o`rgil.*
3. *Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi.*
4. *To`p-to`p ko`k koptok, har bir to`pda ko`k koptok.*
5. *Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.*

3-namuna. Matnni ko`chiring. Sifatlarning tagiga chizing va izohlang.

Nafas olish to`g`ri yo`lga qo`yilsa, nutq jarangdor, kuchli bo`ladi. To`g`ri olingan nafas aytilayotgan jumlalarning yaxlit, o`zaro uzviy bog`liq holda aytilishini ta'minlaydi.

Nutqning ravon, tiniq bo`lishi uchun nafas olishni to`g`ri yo`lga qo`ya bilish lozim. Buning uchun esa muntazam mashq qilib turish zarur.

(A.Orifova)

4-namuna. Matnni o`qing. So`roqlar yordamida bosh kelishikdagi otlarni aniqlab, ularni izohlang.

Yer osti shaharchasi

Metro yer ostidagi ajoyib shaharchaga o`xshaydi. Bu shaharcha qishda issiq, yozda salqin. U yerda chang yo`q. Bekatlar kecha-kunduz yop-yorug`.

Keng, yorug` vagonlarda yuzlab kishilar ishga, o`qishga, do`konlarga boradilar.

Birinchi metro bundan yuz yil oldin Londonda qurilgan.

Toshkentda esa metroning birinchi navbatni 1977-yilning 6-noyabrida foydalanishga topshirildi.

5-namuna. Matnni o`qing va yozing. Undagi fe'llarni aniqlab, zamon va shaxs-sonini izohlab bering.

Asalari va pashsha

(masal)

Pashsha uchib kelayotgan asalarini ko`rib:

-Do`stim, qayerdan kelayapsan?-deb so`radi.

-Gulzordan. Biroz asal yig`dim, uya solish uchun mum olib kelayapman,-dedi asalari.

-Bir boshing uchun muncha ko`p harakat qilasan? Sen ham menga o`xshab kishilar hozirlagan ovqatlarni mazza qilib yeb yursang bo`lmaydimi?- dedi pashsha.

Asalari pashshaga zarda bilan javob berdi:

-Tirikchililing o`z boshingdan beri kelmasin. Mehnat qilmay yegan ovqatdan maza bo`ladimi? Odamlar seni quvlaydilar. O`ldiradilar. Sen tekinxo`rsan. O`g`ri kabi yashaysan. Men halollik bilan kun ko`raman. Mening tayyorlagan asalimni hamma sevib yeydi. Shuning uchun kishilar bizni yaxshi ko`radilar, maqtaydilar, buni bilib qo`y! Mening sen kabi bekorchi bilan gaplashishga vaqtim yo`q.

Shu so`zlarni aytgach, asalari uchib ketdi.

Lug`at diktant

1-namuna. She`rni o`qing. Uy-ro`zg`or buyumlari nomini ifodalovchi otlarni topib, ularni alifbo tartibida yozing.

Oshxonadagi hangoma

- Ro`zg`or uchun eng zarur,
Men bo`laman, - der chelak.
- Sen emas, men – der mag`rur,
Turgan yapoloq elak.
Piyola, choynak, pichoq,
Go`yo emish o`yinchoq.
Foyda bermasmish ular, -
Shunday deb lagan kular.
Piching otib chovliga,
Qoshiq qilar masxara,
- Otvoringlar hovliga,
Buncha ekan tasqara,
Buni eshitib kosa,
O`zin panaga oldi.
Cho`mich bundoq qarasa,
Hamma yoq oldi –soldi.
Shu payt bosiq ovozda,
- To`xtanglar ! – der samovar,-
Kerakdirsiz ro`zg`orda,
Hammangiz ham barobar.
Bu so`zdan barcha idish,
Hushyor tortib qolishdi.
Bir-biridan sekin,
Uzr so`rab qolishdi.

(S.Oripova)

2-namuna. Berilgan so`zlarni holat, payt, o`rin, miqdor-daraja ravishlariga ajrating, gaplar tuzing.

Astoydil, birin-ketin, bafurja, qalban, ertalab, saharlab, ataylab, atayin, aslo, qat`ian, qishin-yozin, qisman, bexosdan, ichkari, tashqari, olg`a, ko`p, oz.

3-namuna. Quyidagi joy nomlarini o`z ma`no guruuhlariga ko`ra jadval shaklida joylashtiring, so`zlarni lug`at tuzgandek alifbo tartibida keltiring.

Cho`lponota, Amudaryo, Yevropa, Afrika, London, Qashqadaryo, Dashnobod, Koson, Osiyo, Ellikqal'a, Shirmonbuloq, G`ijduvon, Tomdi, Samarqand, Beshkent, Qamashi, Surxondaryo, Xorazm, Italiya, Uzunko`cha, Uchtepa, Naymoncha, Ispaniya, Gruziya, Chorsu, Jartepa, Sariosiyo, Yaponiya, Xovos, G`azalkent, Mang`it, Xonqa, Shirmonpazlik, Temirchilik, Avstraliya, O`rtasaroy.

Qit'a nomlari	Davlat nomlari	Shahar nomlari	Qishloq nomlari	Viloyat nomlari	Tuman nomlari	Mahalla nomlari

4-namuna. Matnni o`qing. Ajratilgan so`zlarning ma`nodoshini topib, uni ro`yxatini tuzing.

Chin dugona

*Zumrad uyiga kelsa, oyisi karovatda yotibdi, isitmasi **baland**. U hayron bo`ldi, darrov choy damlab **keltirdi**. Sharofat opa choydan ichib, ko`rpaga o`ranib yotdi.*

*Zumrad qurt boqiladigan uyning eshik va derazalarini ochdi. Xonani **biroz** shamollatdi. Pechkaga **o`t** qalab, uyni isitdi. **Keyin** o`tirib choy ichdi. Shu **payt** ko`cha eshikdan Hanifa kirib keldi. Ular o`qituvchi bilan chorva fermasiga bormoqchi edilar.*

*Zumrad bir **zum** o`ylanib qoldi... Hanifa mакtabga bordi va **voqeani** o`qituvchisiga tushintirdi. Zumradga **yordamlashmoqchi** ekanligini aytdi. U **tezda** Zumradlarnikiga qaytib keldi.*

*Ikki **dugona** Sharofat opaga ovqat tayyorlashdi.*

5-namuna. Mavhum otlarni aniqlang. Yasalishiga diqqat qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ovunch, tinch, xurramlik, ahillik, axmoqlik, yupanch, yaxshilik, yomonlik, o`kinch.

SAYLANMA DIKTANT

1-namuna. Matndagi sonlarni o`zi bog`langan so`zlar bilan birga ko`chiring va qanday so`roqqa javob bo`lishini aniqlang.

Choy

Choy odamlarga juda qadimdan ma'lum. Kishilar choyni dastlab dori o`rnidagina iste'mol qilishgan. Bundan besh ming yil muqaddam yozib qoldirilgan qo`lyozmalardan birida: «Choy kishining ruhini ko`taradi, yurakning ishini muloyimlashtiradi, hordiq chiqaradi, tanani tozalaydi va zehnni ravshanlantiradi» - deyilgan.

Hozirgi vaqtda bir yilda dunyo bo`yicha taxminan sakkiz yuz ming tonnadan bir million tonnagacha choy yetishtiriladi, shuning uchdan bir qismi Hindistonga to`g`ri keladi.

Rossiyaga dastlab Mongoliyadan 1638-yilda dori sifatida choy yuborilgan. 1833-yili Qrimda, 1846-yili Gruziyada tajriba uchun choy ekilgan....

(«Qiziqarli geografiya» dan)

2-namuna. Matnni ko`chiring. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarning ma'nosiga e'tibor bering.

Milliy bog`

*Toshkentda juda chiroyli bog` va xiyobonlar ko`p. Eng chiroyli bog` qadimgi Beshyog`och dahasida joylashgan. Bog`ning boshida **Xalqlar do`stligi saroyi**, yonida Xalqlar do`stligi chorko`chasi va **Oliy Majlis binosi** joylashgan. Bog`ning o`rtasidagi tepalikda **Navoiy bobomizning chiroyli haykali** qad ko`tarib turibdi. Milliy bog`da katta **ko`l va favoralar** bor. Anhorga charxpalaklar o`rnatilgan.*

3-namuna. Matndagi o`tgan zamon fe`lini toping va ularning tuslanishiga e`tibor bering.

Registon

Samarqand – ko`hna tarixiy obidalarga boy shaharlardan biri. Shunday obidalardan biri – Registon uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: Ulug`bek, Sherdor, Tillakori madrasalaridir.

Ulug`bek madrasasi 1471-yilda barpo etilgan. Bu bino Ulug`bek qurdirgan madrasalarning eng kattasi va eng hashamatlisi edi. Bu madrasa o`z davrida ilm-fanning yirik markazi bo`lgan. Madrasada yirik olimlar, jumladan Ulug`bekning o`zi ham dars bergen.

Sherdor madrasasi 1619-1636 yillarda Samarqand hukmdori Yalangto`sh Bahodirning topshirig`i bilan qurilgan. Bahaybat peshtoq tepasida sher va ohular rasmi solingani uchun Sherdor madrasasi deb atalgan.

Tillaqori madrasasi 1647-1660 yillarda qurilgan. U zarhal naqshlar bilan ishlangani uchun shunday nom olgan. Mazkur bino qurilishi bilan Registon maydonidagi ajoyib ansambl mukammal shakl olgan.

4-namuna. Matnni o`qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni o`zi bog`langan so`z bilan birga ko`chiring, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.

Qanotli do`stlarimiz

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda qushlarning to`rt yuz o`ndan ziyodroq turi yashashi aniqlangan.

Qushlar dala ekinlarini har xil zararkunanda hasharotlardan tozalaydi va bizga katta foyda keltiradi. Ayrim bolalar qushlarning poloponlarini yoki tuxumini olish uchun uyalarini buzib tashlaydilar. Bunday bolalarning qilmishlarini sirayam kechirib bo`lmaydi. Qushlarning tinchini buzadigan bolalarni tartibga chaqirish, ularga qushlarning ahamiyatini tushuntirish kerak.

(M. Jo`rayev)

5-namuna. Matnni o`qing va yozing. Ko`plik ma'nosida kelgan otlarni aniqlang.

Xotira maydoni

Poytaxtimiz Toshkentda mustaqillik yillari bunyod etilgan Xotira maydoni bor.

Bu yerdagи motamsaro Ona haykali yoniga har kuni yuzlab kishilar, ayol va erkaklar, yigit va qizlar, bolalar ziyoratga keladilar. O`tganlar xotirasini e'zozlaydilar. Muazzam haykal poyida qora marmardan ishlangan hovuz bor. Uning o`rtasida ona yurtimiz va xalqimiz ozodligi uchun qurbon bo`lganlar xotirasiga atab qo`yilgan mangu olov shu`la sochib, yonib turibdi.

Aziz yurtdoshlar! Ona-Vatan sarhadlari uchun o`z jonlarini qurbon qilgan bahodir vatandoshlarimiz, qahramon ajdodlarimiz xotirasini ulug`laylik!

ERKIN DIKTANT

1-namuna. Matnni bir marta o`qing. So`ngra uni o`zingiz erkin yozishga harakat qiling.

Rivoyat

Bir bog`bonning uch o`g`li bor edi. Uchalasi ham yalqov va dangasa edilar. Bog`bon bir kuni kasal bo`lib yotib qoldi. O`g`illarini chaqirib: «Tokzorning ichiga bir ko`za oltin ko`mib qo`yganman. Menden keyin o`zingiz kovlab, topib, bo`lishib olarsiz», -dedi va bir necha kundan so`ng vafot etdi.

O`g`illari oltin izlab bog`ni ag`dar-to`ntar qilib chiqdilar. Lekin hech narsa topa olmadilar. Biroq shu yili mevalari shu darajada serhosil bo`ldiki, cho`ntaklari pulga to`ldi.

So`ngra o`g`lonlar angladilarki, oltin yerda emas, mehnatda ekan.

2-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. Unga o`z fikrlaringizni bayon qiling.

Qanot

Kun bo`yi chumchuqlar rosa chug`urlashdi, kechga borib esa tinib qolishdi.

- *Buvajon, chumchuqlar hadeb nima deyishadi? – deb so`radi O`tkirjon buvisidan.*

- *Bergan rizqingga, uchish uchun bergan qanotingga shukur, deyishayotgandir – da, - dedi buvisi.*

O`tkirjon daraxtlarga tikilganicha o`ylanib qoldi.

- *Buva, odamda ham qanot bo`lsa, zo`r bo`lardi-a ? – dedi.*

Buvisi jilmayib gap boshladi:

- *Bolaginam, odamning qo`l-oyog`i qaysi qanotdan kam?! Odam tinimsizligi, serharakatligi bilan daryoga o`xshaydi. Oqar suv oqib turishi bilan go`zal, bolam. Agar u oqib turmasa, ko`lmakka aylanadi, aslini yo`qotadi. Sen ham serharakat bo`lsang, ishing unumli bo`lsa, ota-onangga qanot bo`lasan.*

(To`lqin Alhomov)

3-namuna. Matnni o`qing, mavzu bo`yicha bilganlaringizni davom ettiring. Sonlarning ma’no turlarini aniqlang.

Al-Xorazmiy

Al-Xorazmiy 872-yilda Xorazmda tavallud topgan. U algebra va geometriya kabi fanlarning rivojiga munosib hissa qo`shtgan.

Al-Xorazmiyning «Al-jabr» kitobi uch bo`limdan iborat. Unda oltmishdan ortiq murakkab masalalarini tenglama yordamida yechish yo`llari ko`rsatilgan.

Asar 1145-yili R.Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. «Al-jabr» so`zi «algebra», al – Xorazmiy esa «algoritm» deb atalgan.

(S.Ahmedov)

4-namuna. Sifatlarni aniqlab, ularga –**roq** qo`shimchasini , **juda**, **eng**, **g`oyatda** so`zlarini qo’shing, ularning gap ma’nosiga qanday ta’sir etayotganini aniqlang.

Bobur temuriylar sulolasining so`nggi yirik vakili edi. U tadbirkor va jasur lashkarboshi, dono va adolatli hokim, fozil va o`qimishli inson, ajoyib lirik shoir, ilmning turli sohalaridan yaxshigina xabardor bo`lgan yirik olim edi. Uning “Boburnoma” asari haligacha Sharqdagi voqeot janrining beqiyos namunasi bo`lib kelmoqda.

(F. Sulaymonova)

5-namuna. Matnni ko`chirib yozing. Yana qanday bolalarning o`yinlarini bilasiz? Ularning o`xhash va farqli tomonlari borasida fikrlab hikoya qiling.

Mahallamizning bir tomoni Tikonlimozor, bir tomoni Qo`rg`ontagi. Uzun ko`chaning o`ng, chap tomondagi pastqam, tor ko`chalarda o`g`il va qiz bolalar to`planib, har xil o`yinlar o`ynaymiz. "Kurash", "Botmon-botmon", "Oq terakmi, ko`k terak?", "Qushim boshi", "Mindi-mindi", "Bekinmachoq" degan o`yinlarimiz bor.

(G`. G`ulom)

XOTIRA DIKTANT

1-namuna. Matnni o`qing va yoddan yozing.

Toshkent 2 ming yillik tarixga ega. Toshkent aholisi 2 milliondan ortiq. Bu yerda 100 dan ortiq millat vakillari yashaydi. 14 ta muzey, 10 teatr, 630 kutubxona bor.

2-namuna. Quyidagi o`gitlarni qunt bilan o`qing va xotirangizdagini yozing.

Ibn Shifo bobo – ularshar davo.

(O`gitlar)

Xom suvni ichma,

Sog`liqdan kechma.

*Yo`lda yejish non,
Yomondan yomon.*

Yeb bo`lib ovqat,

Yugurma faqat.

*Oshni taklifsiz –
Boshlar tartibsiz.*

Pashshadan kasal –

Tarqar har mahal.

*Og`rimay desang,
Chay, meva yesang.*

(Po`lat Mo`min)

3-namuna. Matnni o`qing. O`zbek tilida so`z turkumlarining tasnifini esda tuting.

*Ma`rifiy matn
So`z turkumlari*

So`z turkumlarini ikki guruhga ajratamiz:

1. Mustaqil so`z turkumlari. 2. Yordamchi so`z turkumlari.

Mustaqil so`z turkumlariga: fe'llar, otlar, sifatlar, sonlar, ravishlar, taqlidlar va olmoshlar kiradi.

Bulardan tashqari eh, oh, uh, shubhasiz, afsus kabi so`zlar ham borki, ular alohida guruhni: undovlar, modal so`zlar guruhini tashkil qiladi.

O`zbek tilida jami 13 ta so`z turkumi bor.

4-namuna. She'rni uch marta takror o`qing va yod yozing.

Ahillik

Xalqlarimiz ahil bo`lsa,
Mustahkamdir yurtimiz.
Bolalar ham ahil bo`lsa
Shudir bizning baxtimiz.

Ahillikni sevgan bola
Barcha bilan o`rtoqdir.
Ahillikni sevmaganlar
Hamma ishi chatoqdir.

(Murod Hayitmetov)

5-namuna. Quyidagi so`zlarning imlosiga diqqat qiling va yoddan yozing.

Ayyom, avval, murakkab, inshoot, hujat, jiddiy, kasallik, hissa, mahalla, muddat.

Ijodiy diktant

1-namuna. Gaplarni to`ldiring va shu asosda ijodiy matn yarating.

1. Navro`z Sharq xalqlarining
2. Qishning oxiridan, bahorning bosqlarigacha
3. Navro`zda qadimdan sumalakdan tortib palovgacha
4. Sumalak ertalabgacha
5. O`zbekiston mustaqillikka erishguncha

2-namuna. O`zaro bog`langan so`zlarni o`qing. Ulardan qatnashtirib gaplar tuzing.

Oppoq qor, qalin qor, qanotli do`stlar, ko`m-ko`k archa, musaffo havo, qiziq o`yinlar, go`zal fasl, kulrang quyonlar.

3-namuna. Quyida berilgan turdosh otlarni shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o`rin-joy otlari, faoliyat jarayon otlari tarzida ajrating va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Jarlik, bog`bon, soylik, buloq, saylov, soat, darvoz, somsapaz, daryo, irmoq, darvozavon, uzimchilik, dehqonchilik, tintuv, o`qituvchilik, qir, tepalik, jilg`a.

4-namuna. Quyida she'rda tushinib qoldirilgan so`zlarning o`rnini to`ldiring. She'rda ifodalangan fikr yuzasidan ijodiy matn yarating.

Inson qo`li

_____ kelsa, ko`m-ko`k dalalar,
To`lib ketar bobo dehqonga.
Ona _____ yumshatish uchun,
Qo`lin urar po`lat ketmonga.

Charchoq bilmay ishlaydi _____,
Tinmay to`kib marjon – marjon _____.
Inson _____ bilan yashnaydi,
Qishi bilan uxlab yotgan _____.

(X.Nurmatova)

Qo`yish uchun so`zlar: *Bahor, yerni, inson, yer, qo`li, ter.*

5-namuna. Matnni o`qing. O`z fikringizni ijodiy bayon qiling.

Kitob

O`tgan zamonda bir podsho vaziri ulomalarini yoniga chaqiribdi. Podsho ularga: «Dunyoda eng zo`r, kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi nima?» - deb savol beribdi. Kishilar u deyishibdi, bu deyishibdi. Birovi dunyoda eng zo`r – qilich desa, ikkinchisi – eng keraklisi – non, debdi. Uchinchisi esa hamma narsadan xabar beruvchi narsa – oynai jahon, debdi.

- *Uch kun muhlat beraman, - debdi podsho hech kimning javobi yoqmaganligidan darg`azab bo`lib.*

Qo`shti podsholikda ta`rifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashar ekan. Undan vazirning xabari bor ekan. Vazir podshoning savollariga shu donishmand javob bera olishiga aqli yetibdi va uni izlab topibdi. Unga podshoning savollarini aytibdi.

Donishmand hech ikkilanmay: - Kitob – chunki kitob bilim beradi. Dunyodagi eng qudratli narsa esa bilimdir – debdi. Donishmandning javobi podshoga ham ma'qul tushibdi.

GRAMMATIK TOPSHIRIQLI DIKTANT

1-namuna. Nuqtalar o`rniga mos tushum yoki qaratqich kelishigi shakllarini qo`yib matnni ko`chiring.

Muhammad Yusuf qo`shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbat.... hech kimga o`xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi.

Muhammadshe'rlari bir qarashda juda sodda, jo`n yoziladiganga o`xshab tuyuladi. Uoson yoziladiganga o`xshab ko`ringan misralari muxlislariyig`latadi, kuldiradi, o`z og`ushiga oladi.

Odamlar ushe`rlari hayojonsiz o`qimaydigan, kitoblarido`konlardan qidirib yuradigan bo`ldilar.

(O.Sharafiddinov)

2-namuna. Maqollarni o`qing. Mag`zini chaqing. Sifatlarning darajasini aniqlang. Qoraqalpoq xalq maqollaridan ham shu kabi namunalar keltiring.

1. *Baland tog`da qor bo`lur, er yigitda or bo`lur.*
2. *Katta karvon katta ko`char.*
3. *Ko`p so`zning ozi yaxshi, oz so`zning o`zi yaxshi.*
4. *Nondon ulug` narsa yo`q.*
5. *To`g`ri so`z qilichdan o`tkir.*
6. *Shirin so`z – jon ozig`i.*

3-namuna. Matnni ko`chiring. Fe`llarni topib, zamoni va shaxs-sonini ayting.

Biz yaqinda «Tengdoshlarining hayotidan» nomli kecha o`tkazmoqchimiz. Kechaning birinchi qismida Nodira qishloq maktablaridagi tengdoshlarimizning darsdan tashqari vaqtlaridagi mashg`ulotlari haqida so`zlamoqchi. Sarvar o`zi yozgan she'rni o`qib bermoqchi. Ra`no, O`ktam, Sodiqlar yodlagan she'rlarini aytib bermoqchilar. Men maktabimizda tashkil etilgan to`garaklar haqida so`zlamoqchiman.

4-namuna. Berilgan o`zbekcha va qoraqalpoqcha maqollarni o`qing. Mag`zini chaqing. Maqollar tarkibidagi **bir** so`zining ma`nosini tushuntiring.

1. *Bir bolaga yetti mahalla – ota-onा.*
2. *Bir og`iz shirin so`z qilichni qinga kiritadi.*
3. *Birni ko`rib fikr qil, birni ko`rib shukr qil.*
4. *Ilmsiz – bir yashar, ilmli – ming yashar.*
5. *Yigit so`zi bir bo`lar.*

1. *Bir qolda yeki g`arbi`zdi' tuti'p bolmaydi'.*
2. *Bir basqa bir ko`z.*
3. *Ko`tere si'mbat, bir pulg`a qi'mbat.*
4. *Bir gul toli'p ashi'ladi', bir gul soli'p ashi'ladi'.*
5. *Birdin' kesapati' mi'n'g`a tiyedi.*

5-namuna. She'rni ifodali o`qing. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarning qaysi so`z turkumiga oidligini ayting.

Tarvuz

*Men polizni oralab,
Yurgan edim saralab.
Bir tarvuz uzib bobom:
- Yeb ko`rgin, - dedi, - bolam.
Bo`lib ikki pallaga,
Yedik uni dalada.
Qizilligin so`rasam,
- Quyoshning ishi, - dedi.
Shirinligin so`rasam:
- Mehnatning gashti, - dedi!*

(S.Rajabova)

NAZORAT DIKTANT Ketmas boylik

Menda bir so`m bor. Sizda ham bir so`m bor. Men sizga o`zimning pulimni berdim. Siz ham menga o`zingizning pulingizni beryapsiz. Hech nima o`zgarmadi. Sizda ham bir so`m qoldi, menda ham

.....Menda yangi bir fikr bor. Sizda yangi bir fikr bor. Men sizga yangi fikrimni aytdim. Siz ham menga yangi fikringizni aytdingiz.

Sizda ham ikkita fikr paydo bo`ldi, menda ham

Esli odam pul almashmaydi. Fikr almashadi!

(O`. Hoshimov)

Adabiyot muzeyi

1968-yilning kuzida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi ochildi. Bu muzey xalqimizning buyuk Navoiyga, uning ijodiga bo`lgan muhabbatiga yorqin misoldir.

Muzey sahnidagi ko`kalamzor, gulzor bog`da Navoiy haykali o`rnatilgan. Umarmar hovuzga qarab turibdi. Hovuz atrofida taniqli ijodkorlarning byustlari qo`yilgan.

To`rt qavatli ko`rkam binoga kiriladigan ikki katta eshik g`oyat go`zal ishlangan.

Navoiy hamda unga zamondosh shoir va olimlarning ijodiy merosini yoritish uchun muzeyda o`n uchta bo`lim ajratilgan. Muzey xodimlari jahon kutubxonalarida saqlanayotgan o`zbek adabiy merosini yig`ish va ularni adabiyot ixlosmandlariga taqdim etish borasida ko`p yaxshi ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Adabiyot muzeyi boshqa muzeylar kabi doimo tashrifchilar bilan gavjum. Xalqimiz unda jamlangan boy materiallarni qiziqib o`rganadi va ular bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Chumolilar

Chumolilarning turi juda ko`p bo`lib, ular pastliklarda, tog`larda, dalalarda, o`rmonlarda, qirlarda yashaydi. Yer yuzida och sariq, jigarrang, qora, qizil, sariq, olachipor chumolilar uchraydi.

Chumolilarning ba`zi turlari o`t, yaproq va don-dun bilan oziqlanadi. Bular qishloq xo`jaligiga ma'lum darajada zarar keltiradi. Ammo chumolilarning ko`pchiligi tabiat uchun foydali. Ular mevali bog`larda, paxtazorlarda, sabzavotlarda, polizlarda zararli hashoratlarga qiron keltiradi.

(«G`uncha»)

Sharqona o`lchov birliklari

Ma`rifiy matn

O`zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman xalqlari tarixan narsa-buyumning uzunligi, og`irligi va masofani ifodalovchi bir qator so`zlardan foydalangan. Bular sharqona o`lchov birliklaridir. Chunonchi, gaz, gazcho`p so`zlari narsa-buyumning uzunligini, tosh, chaqirim so`zlari masofani ifodalagan.

Masalan: gaz – 0,71 metrga teng uzunlik o`lchovi, gazcho`p – santimetrlarga bo`lingan, uzunligi bir gazga teng o`lchov asbobi. Chaqirim – 1,06 kilometrga, tosh sakkiz chaqirimga teng masofani anglatgan. Narsa-buyumning og`irligini ifodalash uchun misqol, qadoq, pud, botmon kabi so`zlar qo`llanilgan.

Masalan: misqol - 4,76 grammga, qadoq – 400 grammga, pud – 16 kilogrammga, botmon ikki puddan 11 pudgacha teng bo`lgan og`irlilik o`lchovini ifodalagan.

Qishloq

Biz qishloqda yashaymiz. Qishlog'imiz kundan-kunga obod bo`lyapti. Qishlog'imizda yangi binolar qurilayapti. Qishlog'imizdan gaz o'tgan. Uyimizga gaz kiritilgan. Gazdan hammamiz foydalanamiz.

Qishlog'imizda hamma bir-birini yaxshi taniydi. Va hurmat qiladi. Mahallalarni obod qilish uchun tez-tez hashar uyushtirib turiladi. Hasharda yosh-u qari birdek ishtirok etadi. Qishloqda yashash menga juda yoqadi.

7-sinflar uchun TA'KIDIY DIKTANT

1-namuna. Matnni diqqat bilan o`qing va yozing. Yakka va takror qo`llanilgan bog`lovchilarni aniqlang.

Odamiylik

Odamning yaxshi yomonligi, axloqli yoki axloqsizligi, madaniyatli yo madaniyatsizligi, shavkatli yo shavkatsizligi uning muomalasidan bilinadi. Shuning uchun o`z qadrdonlarining qiymatini bilgan odam eng avval muomala odobining g`amini yeydi. Chunki inson butun umrini hamda hayot faoliyatini odamlar orasida o`tkazadi. U goh uyida bo`lsin, goh ish joyida bo`lsin, odamlarga to`qnashmay iloji yo`q. Shuning uchun u o`zini jamiyatga mos tutishga, ya`ni odamlarni hurmat qilishga, o`zi ham ulardan hurmat ko`rishga intilishi kerak. Bu esa har bir kishidan odamshavandalikni talab qiladi.

(M.Ismoilov)

2-namuna. Matnni ko`chiring. Fe'l mayllarini aniqlang.

So`zlar hayoti murakkab, ularga sehr yashiringan so`zlar ham o`z xalqi bilan birga umr kechiradi, xalq quvonsa, quvonadi, kuyinsa, kuyinadi.

Kishilar o`zgalarni o`ylab buloqlarning bekilgan ko`zlarini ochadilar, avlodlari uchun daraxtlar ekadilar. Bundan keyingi avlod buloq suvidan daraxt mevalaridan bahramand bo`ladi. Ota-bobolarimiz qoldirgan so`zlar ana shu buloqlar va daraxtlardir.

So`zlar biz uchun asrlar sadosi, uzoq o`tmish bilan hamnafaslik hissini uyg`otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko`prikdir.

(B.To`ychiboev)

3-namuna. She'rni o`qing. Yuklamalarni ajratib, turini ayting va yozilishiga e'tibor bering. Ular she'r mazmuniga qanday ta'sir qilayotganini ta'kidlang.

Hatto, it urishga zirqirar qalbim,
Odam odam payin qirqmoq bo`lsa-chi?
So`zsiz qichqiramen, nega tug`ildim,
Quloqlarim batang bo`lib qolsa-chi!
O`rtada bo`lsin deb qadr ham izzat
Ayriliq va o`lim yaralganmi yo?
Shunda ham tantilik qilib tabiat
Buyuk bir aqlni bergen-ku, ammo

Shu aql tantana qilar, azizim,
Tantana qiladi shavqat va vijdon.

(S. Zunnunova)

4-namuna. Berilgan gaplardagi ko`makchilarni toping. Ularni guruhlarga ajraring va bir-biridan farqini ta`kidlab ko`rsating.

Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ijobiy xislatlarga ega bo`lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o`ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o`z ustida ko`p ishlardi... Usmon she'rlarida jimjimadorlik ko`rinmas, fikr tuyg`u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinar edi.

(O`tkir Rashid)

5-namuna. Gap to`plamlarini o`qing va yozing. Ular orasidagi farqlarni va bu farq nima bilan bog`liq ekanligini izohlang.

A) 1) Bu kitobni o`qigin. 2) Bu kitobni o`qiysan. 3) Bu kitobni o`qisang, ko`p narsa o`rganasan.

B) 1) Dadangiz uzoq umr ko`rsinlar. 2) Dadangiz uzoq umr ko`radilar. 3) Dadangiz uzoq umr ko`rsalar, xalqqa ko`p yaxshiliklar qiladilar.

S) 1) Men uchuvchi bo`lay 2) Men uchuvchiman. 3) Men uchuvchi bo`lsam, orzum ushaladi.

IZOHЛИ DIKTANT

1-namuna. Matndagi yordamchi so`zlarni aniqlab, tagiga chizing va uni izohlang.

Eng go`zal va dilbar qo`shtiqlar ham vatan haqidagi qo`shtiqlardir. Bunday jozibador qo`shtiqlar el-elatlarni birlashtiradi, ularni tinch-totuv va osoyishta yashashga, Vatanni har jihatdan yuksaltirishga, ko`z qorachig`iday asrab-avaylashga va ko`ksini qalqon qilib himoya qilishga da`vat etadi.

Xalqning sabr-toqati cheksiz emas. U dengizga o`xshaydi: goh to`lib, goh kamayib turadi. Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg`oq bo`lmog`i darkor. O`z tarix va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo`ladi. Aslida inson baxt uchun, dunyo ne'matlaridan bahramand bo`lishi uchun tug`iladi.

(«Inson baxt uchun tug`iladi» kitobidan)

2-namuna. Matnni o`qib, unda qanday g`oya ilgari surilganini izohlang. Ravish so`zlarni o`zi bog`lanib kelgan so`z bilan birgalikda ko`chirib yozing.

O`rgimchak bilan ipak qurti

O`rgimchak ipak qurtini ko`rib, uning ustidan kuldil va:

- Omonmisan, do`stim! Sen juda sekin, juda og`ir ish qilyapsan. Qara, men oz vaqtida kattakon bir to`rni bir zumda to`qib tashlayman., - dedi.

Ipak qurti o`rgimchakka dedi:

- To`g`ri sen haqsan. Ammo bir zumda qilingan bu uyingdan nochorroq uy bormi? Sening ingichka iplaring juda zaifdir. Men sekin ishlayman, ammo pishiq ish qilaman. Shu bois ipagimni hamma qadrlaydi. Ipagim oz bo`lsa ham, senikidan ustundir va qimmatdir.

(Sharq hikoyasi)

3-namuna. Matnni o`qing. Fe'llarning yasalishiga diqqat qiling va ularni izohlang.

Mirza Bobur yoshligidanoq ziyrak bola bo`lib o`sibdi. Kunlardan bir kuni Umarshayx saroy a'yonlari bilan qasrda o`ltigan ekan, bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo`nibdi-da, «g`ulu-g`ulu» qilaveribdi. Umarshayx a'yonlaridan «Kabutar ne deydur» deb so`rab qolibdi. Anchadan buyon urush ko`rmay qilichlari qonsirab qolgan a'yonlar: «Oliy hazrat, kabutar qilichlarni qindan sug`urmoq kerak deydur?», - deb javob berishibdi.

Gapga aralashmay bir chekkada jim o`ltirgan Mirzo Babur: «Yo`q, kabutar unday demaydur. Bobo qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor shu xushxabarni keltiribdur», - debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishini buyuribdi. Kabutarni tutib kelib, oyog`idagi mis xalqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi. Xatda: «Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo`l urib bersalar», - deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi to`g`ri chiqqandan hayratga tushgan Umarshayx o`g`lidan: «Mirzoning bunchalik bilag`on va topqirligiga bois nedur?» - deb so`rabdi. «Ota», - debdi Bobur. – Bu kabutarga e'tibor qilmadingiz. O`tgan yili ham qovun sayli xushxbarni xuddi mana shu jonivor xabar qilg`on erdi, kaminaning ko`zi kabutarning o`ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti ani tanidim va shu so`zni taxmin etdim», - deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a'yonlariga qarab: «qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin» - deb buyuribdi.

(«Allomalar ibrati» kitobidan)

4-namuna. Qavs ichida berilgan yordamchi so'zlardan mosini qo'yib, matnni ko'chiring. Yordamchi so'zlarga izoh bering.

Millatning kelajagi bugundan boshlanadi. O'zligini anglamagan, manqurtlik (beri, tomon, ko'ra) ketayotgan odamlar bilan yangi jamiyatni qurib bo'lmaydi. Ma'naviyati yuksak insonlar (nahotki, nafaqat, agar) o'z davri rivojiga, (-ki, balik, shuning uchun) millat kelajagi (hamda, yoki, yohud) ravnaqiga ham munosib hissa qo'shadi.

Ma'nан boy, ruhan komil insonlarga ozod (bilan, ham, va) obod Vatanni qurishga qodirdirlar.

(Y. Do'stmatova)

5-namuna. Matnni o`qing. Ajratilgan so`z birikmalarida aniqlovchi va to`ldiruvching belgili yoki belgisiz shakllarida kelganligini izohlang.

Ona-yurt sog`inchi

Vatan nima o`zi? Vatan-**ona allasi** taralgan, **beshiging izlari** chizilgan zamin. Ajdodlaring ko`milgan qabriston, **ota-onangning izlari** qolgan ko`chalar, **sening** lahjangda so`zlashadigan, qosh-u ko`zi xuddi sening kabilar yashaydigan qadrdon yer-Vatandir!

Birinchi bor bahorni **tanigan**, ilk bor **varrak uchirgan**, birinchi marta **hayitlik olgan** joying, **birinchi o'qituvchi**, birinchi **muhabbatining tanitgan makon**-Vatandir.

LUG`AT DIKTANT

1-namuna. Quyidagi otlarni qo`shma va juft otlarga ajratib, lug`at tartibida tuzing.

Ekin-tikin, to`rtburchak, dunyoqarash, yor-birodor, o`y-xayol, gulchambar, aql-hush, gulhamishabahor, savdo-sotiq, ko`ksulton, arpa-bug`doy, karnay-surnay, Qorqiz, Beshariq, yosh-qari, Markaziy Osiyo, qorbo`ron.

2-namuna. Matnni o`qing. Undagi ot so`z turkumiga oid so`zlarni aniqlab, uni turlarga bo`ling va lug`at asosida yozing.

Sharq chinori

Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan va Samarqand viloyatlarida 500-600 yillik chinorlarni ko`rasiz. Sharq chinorlari Kavkaz, Qrim va Markaziy Osiyoda o`stiriladi. Olimlarning aytishlaricha, chinor daraxtini qadim-qadim davrlarda yurt kezuvchi sayyoohlar, savdogarlar va darveshlar Eron va unga qo`shni mamlakatlardan O`zbekistonga olib kelishgan. Hisor tog`i etaklaridagi qishloqlarda, buloq va chashma bo`ylarida minglab chinorlar bor. Chinor qahraton sovuqqa va qurg`oqchilikka g`oyat chidamli manzarali daraxt sifatida qadrlanadi.

(A.Aminov)

3-namuna. Quyida berilgan undov va his-hayajonni bildiruvchi so`zlar yordamida gap tuzing. Bu so`zlarni qoraqalpoq tiliga o`giring va ular ishtirokida gaplar tuzib, ma’nosini sharhlang.

oh, ho, ohho, eh, ehhe, uh, ura, obbo, eha

4-namuna. Quyidagi sport turlariga diqqat qiling. Ularni dastlab xalqaro sport turi, keyin milliy sport turi shaklida ajratib jadval tuzing, uni lug`at asosida joylashtiring.

Xokkey, chavgon, kurash, tennis, futbol, poyga, shaxmat, boks, ko`pkari, voleybol, suzish, yengil atletika, basketbol, shtanga ko`tarish.

5-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. Undagi belgi-xususiyat bildiruvchi so`zlarni aniqlab lug`at shakliga keltiring, so`zлarning qoraqalpoqcha variantini yozib chiqing.

Inson hayotida badan tarbiyasi katta ahamiyatga egadir. U insonning sog`lom bo`lishiga xizmat qiladi. Badan sog`ligi fikr va axloqning ham sog`ligini ta`minlaydi. Badantarbiya bilan muntazam shug`ullanib yuradigan inson badantarbiya bilan mutlaqo shug`ullanmaydiganlardan ko`ra sog`lomroq, teran fikrliroq, odobliroq bo`ladi.

Bunga qanday qilib erishamiz? Birinchidan, tana a`zolarining barchasi harakatga kelishini ta`minlovchi mashqlarni bajarish lozim. Bunda qo`l oyoq, gavda bilan birga umurtqa ham harakatlanishi lozim. Ikkinchidan, turli o`yinlar o`ynash ma`qul. Shu ikki vazifani ochiq havoda bajarib turish yopiq binoda bajargandan ko`ra foydaliroq. Shunda sog`lom va toza fikrli bo`lasiz.

SAYLANMA DIKTANT

1-namuna. Matnni ko`chiring. Undagi qaratqich va tushum kelishigini aniqlang.

Non

Nonni ona sutiga tenglashtiradilar. Inson bolasiga dunyoda mana shu ikki buyuk ne`matdan qimmatli narsa yo`q. Chunki vaqt kelib ona bolasini sutdan ayiradi. Endi bola umrining oxirigacha ona suti o`rniga non tanovul qiladi. Non ona sutining davomchisidir.

Non qachon paydo bo`lgan? Olimlarning taxminicha, nonning paydo bo`lganiga 15 ming yildan oshgan.

Qadimgi Misrda birinchi marta oshirilgan xamirdan foydalanish odat tusiga kirdi. Non yopish san`ati keyinroq greklarga va rimliklarga o`tgan. Qadimgi Rimda yumshoq bug`doy non nihoyatda totli hisoblangan. Bu yerda novvoylar nonning ko`plab navlarini kishilarga tortiq etganlar. Non inson mehnatining mahsulidir.

Buvi-buvalarimiz bizni «Nondek aziz bo`l!» - deb duo qiladilar.

(«Taqvim» dan)

2-namuna. Matnni o`qing. Undagi juft otlarni aniqlang, o`zingiz ham matndagi otlardan juft otlar yasang.

Buyuk bir donishmand odomzotning noplaklari va tuban ehtiroslarini bir uyga qamab qo`yilgan uch maxluq: odam, to`ng`iz va arslonga o`xshatgan ekan. U odam deganda aql-idrokni, to`ng`iz deganda insonning chirkin istaklarini, arslon deganda esa qahr-u g`azabini nazarda tutibdi. Bu uch maxluqning qaysi biri zo`r chiqsa, qamaldan uyda o`sha ustunlik qilar emish.

Bu qissadan hissa shuki, to`ng`iz bilan sher, ya`ni tuban ehtiroslar qanchalik zo`r bo`lmasin, aql-idrok, baribir, yengusidir.

(O.Yoqubov)

3-namuna. Nuqtalar o`rniga kelishik yoki egalik qo`shimchalarining mosini qo`yib, she`rni o`qing va ko`chiring.

Men tug`ilgan o`lka

*Men tug`ilgan hur o`lka,
Ozod sharqda nur o`lka.
Ko`rkam qishloq, shahar ...,
Shod o`tar har mahali.
Metall berar Bekobad,
Farhod GES dan el obod,
Nur olar har xona ...,
Gullagan Farg`ona ...,
Xalqqa ust-bosh pilla ...,
Bebaho oq tilla,
Mevazor bog`-u bo`ston,
Serquyosh O`zbekiston.*

(Qudrat Hikmat)

4-namuna. Rivoyatni o`qing. Undagi ravishdoshlarni aniqlang va tagiga chizing.

Rivoyat

Boborahim Mashrab bir qishloqdan o`ta turib, kuylab g`isht quyayotgan bir dehqonning so`zlariga quloiq solibdi. Bu dehqon shoirning g`azallarini buzib, poymapoy o`qib, xirgoyi qilayotgan ekan. Shoh Mashrab shartta burilib, dehqon hozirgina quygan g`ishtlarini bosib, majaqlab ketaveribdi. Buni ko`rgan dehqon jahl bilan

mush t u g i b : " H o y , b e r a h m , t e r t o ' k i b q u y a y o t g a n g ' i s h t l a r i m n i n e g a b o s i b k e t a y a p s a n ? " - d e b s h o i r n i n g y o n i g a y a q i n l a s h g a n d a , u k i s h i : " N e g a y u r a g i m q o n i b i l a n b i t i l g a n m i s r a l a r i m n i b u z i b o ' q i y a p s a n ? d e g a n e k a n l a r .

5-namuna. Matnni o'qing. Undagi gaplarni "Fe'l-kesimli gaplar" va "Ot-kesimli gaplar" kabi ikki guruhga ajratib ko'chiring.

Imom Ismoil Buxoriy

Hadislar payg`ambarimizning hayotlari va diniy-axloqiy ko`rsatmalarini o`z ichiga oladi. Shuning uchun hadislar islom olamida Qur'oni karimdan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manbadir. Hadislarni to`plovchi, ularni to`g`ri ekanligini isbotlovchi va tushuntiruvchi olimlar muhaddislar deyiladi. Musulmonlar orasida minglab muhaddislar ichidan buyuk ishonchlilari oltidadir. Shulardan ikkitasi-bizning vatandoshimiz. Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy shulardan biridirlar.

Imom Buxoriy 810-yilda Buxoroda tug`ilganlar. U Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag`dod madrasalarida ta'lim oldilar, qunt bilan islom tarixini o`rgandilar, yirik olimlar-tarixchilar, muhaddislar davrasida bo`ldilar. Buyuk muhaddis ta'lim olgan ustozlarning soni to`qsondan ortiqdir. Imom Buxoriy o`z davrining taniqli muhaddisi bo`ldi. "Sahih" yoki "Sahihi Buxoriy" nomi bilan atalgan bu kitob musulmon olamida mashhurdir.

GRAMMATIK TOPSHIRIQLI DIKTANT

1-namuna. O`qing. Nuqtalar o`rniga kelishik qo`shimchalaridan mosini qo`yib, matnni ko`chiring. Shu so`zlarning qaysi kelishikda ekanini ayting.

Aylana va doira

Aylanadoiranima farqi bor? Aylana chiziq. Oq qog`oz ustiga piyolaqo`yib, atrofidan qalam yurgizilsa, hosil bo`lgan dumoloq chiziq aylana bo`ladi.

Doira – yassi shakl – chizilgan aylanaatrofidan qaychida qirqib, doira hosil qilinadi.

Aylana chizish uchun qo`llanadigan asbob sirkul (pargar) deb nomlanadi.

(«Bolalar entsiklopediyasi» dan)

2-namuna. Nuqtalar o`rniga juft otlarning ikkinchi qismini topib qo`ying va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Savdo - , tevarak - , o`y - , huzur- , ko`z - , - qatiq, o`t - , gap - , hol - , yor - , temir - , rang -

3-namuna. Har bir qatordagi so`zlardan foydalangan holda gaplar tuzib yozing. Bog`lovchilarni aniqlang.

1. Bog`larda, qirlarda, ko`karadi, dalalarda, va, o`tlar, bahorda.
2. Olma, gulladi, va, olcha, gilos, mevali, boshqa, daraxtlar.
3. O`qiydi, ammo, tez, yozadi, Rahim, sekin.
4. Biz, har doim, qilib, badantarbiya, bardam, yuzamiz, va, sog`.
5. Ra'noxon, aytmaydi, ashula, chaladi, dutorni, yaxshi, biroq.

4-namuna. Matnni o`qing. Ko`makchilarni qavslarda berigan ma'nodoshlari bilan almashtiring.

Jismoniy va aqliy chiniqish

Inson uchun (-ga, **ga atab**) berilgan buyuk ne'mat-hayot sog`lik bilan (*tufayli, sababli*) go`zaldir. Shu bois (*shu sababli*) inson o`z sog`ligini saqlash uchun (-ga, *maqsadida*) kurashish lozim. Sog`likni saqlashning eng asosiy yo`li esa o`z badanini chiniqtirish, tananing himoya imkoniyatlarini oshirishdan iborat. Chunki "sog`liq" tushunchasi zamirida odam tanasining tashqi muhit ta'siri uchun (-ga) chidamlilik darajasi va ish qobiliyati sifati tushuniladi. Inson badani esa jismoniy mehnat, sport bilan (*vositasida, tufayli, sababli*) chiniqadi. Xotira, ko`rish, yurish qobiliyatlarini oshirish uchun (*maqsadida*) ularni rivojlantiradigan faoliyat bilan muttasil shug`ullanish lozim. Biz jismoniy mehnat, harakatli badantarbiya vositasida (*bilan, yordamida, tufayli*) ichki va tashqi mushak faoliyatini oshirsak, ularning kuchiga kuch qo`sksak, miya qobiliyatlarimizni aqliy badantarbiya, aqliy sport yordamida (*bilan, tufayli, asosida*) rivojlantiramiz.

5-namuna. Uch guruhgaga bo`lining. Birinchi guruh sodda, ikkinchi guruh qo`shma, uchinchi guruh juft otlarga misollar topib yozing. So`ng ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna:

Sodda:

Bog`

Adir

.....

.....

Qo`shma:

Gulbog`

Oshqozon

.....

.....

Juft:

Qir-adir

Non-choy

.....

.....

ERKIN DIKTANT

1-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. Undagi sifatdosh va ravishdoshlarni aniqlang. Rivoyat mazmuni bo`yicha tushunchangizni erkin fikrlab yozing.

Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda bir zargar bo`lgan ekan. Kunlardan bir kuni shoh uni saroyga chaqirib, oltindan taxt yasab berishni topshiribdi.

- Ishni qirq kunda bitirasan. Shartim shuki, saroydan bir qadam ham jilmaysan, senga hamma narsani muhayyo qilishadi, - debdi shoh.

Zargar ishga kirishibdi: belgilangan muddatga uch kun vaqt qolibdiki, ishning natijasi ko`rinmasmish. Podshoh darg`azab bo`libdi.

- Men taxtni uch kunda bitirib beraman, lekin bitta talabim bor. Ishni uyimga olib borib qilaman. Agar oltinni o`g`irlaydi deb qo`rqsang, ayt, kuzatib turishsin, - debdi zargar.

Zargarning talabini qondirishibdi. U uch kun ichida chindan ham taxtni bitiribdi. Podshoh hayron qolibdi.

- Shuncha muddatda qilolmagan ishingni qandoq qilib uch kunda bitirding? – deb so`rabdi.

- Saroya men uchun hamma narsa yetarli edi-yu, lekin ilhom manbai bo`lgan o`z muhitim yetmay turgan edi. Shuning uchun ham ishni bitira olmagandim, - deb javob beribdi zargar.

(O`Hoshimov)

2-namuna. Rivoyatni o`qing. Mazmuni yuzasidan o`z fikringizni erkin bayon qilib yozing.

Sharafli burch

Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog` sayridan qaytib kelayotgan ekan. Yo`l qabriston oralab o`tar ekan, qabristonga yuz qadam chamasi qolganda mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yo`lida davom etibdi. Mulozimlari ham otlaridan tushib, uning ortidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib, o`tib ketishibdi. Biroz yurishgandan so`ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so`rabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi:

- Bu yerda xalqimizning jigargo`sralari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o`tish insonlik sha`niga isnoddir. Nahotki shuni ham bilmasalar? Buni bilmaslik tiriklikdag`i o`liklikdir. Ota-bobolarimiz xokini, xotirasini e`zozlamoq har bir kishining sharafli burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo`ygan boladek to Hirotning qorasi ko`ringuncha tillarini tishlab, aqlini peshlab boribdilar.

(Qudrat Hikmat)

3-namuna. Quyidagi matnni ko`chiring. Shu kabi miliy urf-odatlarimiz yuzasidan erkin fikringizni bildirib yozing.

Salomlashish odobi

Salomlashish – qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar, o`zaro insoniy muloqot-muomola munosabatni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog`liq urf-odatlari bor. Hindlar qo`l kaftlarini birlashtirgancha, peshonalariga tirab, afg`onlar yuzlarini yuzlariga suykagancha kaft urishtirib salomlashsa, inglizlar bosh kiyimini olib, yengil ta`zim qilishadi.

Biz o`zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko`rganda «assalomu alaykum» deya, qo`l olishib ko`rishamiz.

Xalqimizning o`ziga xos tabiatini, lutfkorligini, urf-u odatlarini hammamizga jonday aziz, qadrdon bo`lib qolgan «salom» so`zisiz tasavvur qilolmaymiz. Odamning kimligini uning salomi belgilaydi.

(M.Sattor «O`zbek udumlari»)

4-namuna. Berilgan hikoyani o`qing. Mulohaza qiling. Undan namuna sifatida foydalanib ”O`quvchi qanday yaxshi fazilatlarga ega bo`lishi va qanday yomon xislatlardan saqlanishi lozim?” mavzusida erkin matn yarating.

Karimjonni mактабда, mahallada hamma sevardi. Chunki u aqli, odobli, tarbiyali va tirishqoq bola edi. Maktab o`qituvchilari yalqov o`quvchilarga: "Karimjonga o`xshab odobli, tarbiyali bo`linglar, undan ibrat olinglar"-deb nasihat qilardilar.

Karimjon ezma emas, oz so`zlardi, boshqalar so`zlaganda ularning so`zлари tamom bo`lguncha tinglar, orada so`z qo`shmasdi. Ikki kishi so`zlashib turganda yonlariga borib, ularning gaplariga quloq solib turmasdi. Mabodo undan bir narsani so`rasalar, muloyimlik bilan javob berardi.

Ovqatlangan vaqtida hamma yoqqa to`kib, dasturxonni iflos qilishdan, og`zini to`latib ovqat yeyishdan, boshqalarning ovqat yeyishiga qarab turishdan o`zini tiyardi.

Aziz bolajonlar, har biringiz Karimjon kabi odobli, tarbiyali bo`lishga harakat qilinglar.

(O. To`rayeva)

5-namuna. She`rni ifodali o`qing. So`ng uning mazmunini erkin bayon qilib hikoya tarzida yozing.

Jahonda nima ko`p-go`zal joylar ko`p,
Tovusning pariday rango-rang, so`lim.
Yer o`g`li edim men, shuning uchun ham
Bir payt sayyoqlikni qasd qilib oldim.
Ko`ra-ko`ra ancha, hafsalam sovib,
Nihoyat, vatanga qaytib yo`l oldim.
Hamma ko`rganimdan yaxlit xulosa:
Tuqqan vatan ekan jahonda go`zal

O`z yurtim yerida ungan har maysa
Begona yurtlarning gulidan afzal...

G`afur G`ulom

Xotira diktant

1-namuna. Berilgan xalq qo`shig`ini ifodali o`qing va yod olib uni yozing.

Sumalak

(*xalq qo`shig`i*)

*Sumalakjon, sumalak,
Men senga jonio halak.
Sumalak qadim ovqat,
Uni pishirib berish,
An'anaviy zo'r odat.*

*Tayyor bo`lgan bug`doyjon,
Yanchib-yanchib ezilar.
Suvi siqib olinib,
Doshqozonga solinar.*

*Bug`doyni avval olib,
Taxtaga yayratamiz.
Haftalab suvni sepib,
Bahorday yashnatamiz.*

*Yayrab-yayrab momolar,
Qozonni bulg`ab turar.
O`sma tortgan qiz-juvon,
Sho`x qo`shiq kuylab turar.*

*Sumalakjon, sumalak,
Men senga jonio halak.
Sen pishib chiqqaniningda,
To`yib-to`yib bir yalay.*

2-namuna. She`rni yod olib yozing. Shaxs nomlarini eslab qoling. Yana qanday mashhur allomalarini bilasiz? Shu haqda suhbatlashing.

Ona tilim o`lmaydi

*Notiq dedi:
«Taqdir shul,
Bu jahoni yiroda.
Tillar yo`qolur, butkul,
Bir til qolur dunyoda»
- Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan?
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.*

*Kim darg`azab, kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor,
«Va'zingni qo`y, birodar,
Sen aytganing bo`lmaydi!»
Barcha dedi barobar,
«Ona tilim o`lmaydi!»*

(E.Vohidov)

3-namuna. O`zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida» gi Qonunidan olingan bandlarni o`qib, yoddan yozing. Shu haqida suhbat quring.

1-modda. O`zbekiston Respublikasining davlat tili o`zbek tilidir.

2-modda. O`zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o`z ona tilini qo`llashdan iborat Konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

24-modda. O`zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash ta`qiqlanadi.

4-namuna. Maqollarni o`qing, ularda ilgari surilgan g`oya haqida fikrlang va yoddan yozing.

1. Eling senga cho`za qo`l,
Unga doim sodiq bo`l.
2. Yurt boshiga ish tushsa,
Er yigit nozir bo`lur.
3. Xalq bor yerda haqlik bor.
4. El boqsa, baxting kular,
El bo`lmasa, taxting qular.
5. Xalqqa suyansang, bo`lasan,
Xalqdan chiqsang, so`lasan.
6. Birlikda baraka bor.

5-namuna. Quyidagi so`zlarning imlosiga diqqat qiling va xotirangizda saqlab ularni yodda yozing.

Badiiy, xafa, mehr, izzat, ehtirom, mukammal, latofat, mamnuniyat, konstitutsiya, himoya.

IJODIY DIKTANT

1-namuna. Matnni o`qing. Yordamchi so`zlarni aniqlang. Matnni tanqidiy davom ettirib ijodiy fikrlab yozing.

So`z yoki so`zlar orqali ifoda etiladigan fikr gapdir. Boshqacha aytganda, uni mantiq ipiga tizilgan so`zlar marjoni deyish ham mumkin. Bu marjon mazmun yuzakiligi yoki teranligiga qarab, ko`zmunchoqlar tizimi yoki bir shoda marvarid ham bo`ladi. Shu o`rinda ta`kidlab o`tish ham lozimki, eng qadimgi turkiy so`zlar qisqa, lo`nda bir bo`g`inli bo`lgan: bosh, qosh, ko`z, qo`l, kul, bor, yot, o`t va hokazo. Boshqacha aytganda, ajdodlarimiz bir so`z ila fikrni to`la ifodalay olganlar va bu xislat biz avlodlarga to`hanuz meros bo`lib kelayotir. Masalan, «kel» degani

buyruqdan tashqari, o`zi tomonga chorlash ma`nosini ifodalasa, «ket» deganda o`zidan uzoqlashtirish ma`nosi bildirilgan.

Xuddi so`z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o`rniga qarab ma`nolari ko`p.

(«*Vatan tuyg`usi*»)

2-namuna. Hadislarni diqqat bilan o`qing.

Qaratqich va tushum kelishiklarini aniqlang. O`zingiz ham kelishiklarni qo`llab bilgan va o`qigan hadislaringizdan namunalar yozing.

1. *Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoye qilishdir.*
2. *O`zing yaxshi ko`rgan narsangni o`zgalarga ham yaxshi bil.*
3. *Odamlar orasini buzadigan chaqimchilikdan saqlaninglar.*
4. *Uzr aytishga majbur qiluvchi ishlarni kamaytiringlar.*

3-namuna. Matnni o`qing. Uni to`ldiring.

Serquyosh poytaxtim

Mustaqil O`zbekistonning serquyosh poytaxti – Toshkent kun sayin chiroy ochib bormoqda.

Shahar ko`chalari kengaytirilib, yangi yo`llar, ko`priklar qurilmoqda, bog`lar barpo etilmoqda.

Shaharda qad rostlayotgan binolar uning husniga husn baxsh etmoqda. Ayniqsa, Temuriylar tariyxi davlat muzeyi, Milliy drama teatri binosi, Milliy bank, yangi konservatoriya binosi shahar mehmonlari e`tiborini tortmoqda.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Xotira maydoni va Shahidlar xotirasi xiyoboni xalqimizning ziyyaratgohlariga aylanib ulgurdi.

Umuman, istiqlol yillarida Toshkent yanada chiroy ochib bormoqda.

4-namuna. Quyidagi savollarga ijodiy javob yozing.

1. *Kitob qanday tayyorlanadi?*
2. *Nima uchun kitobni asrash kerak?*
3. *Kitobni asrash uchun nima qilish kerak?*
4. *Kitobdan nima uchun foydalanamiz?*
5. *«Kitob – bilim xazinasi» - deganda nimani tushinasiz?*

5-namuna. Berilgan matnni o`qing. Sifatdoshlarning yasalishiga e'tibor bering. Do`slik borasida tuyg`ularingizni ijodiy bayon qiling.

To`rt toifa

Boshingga quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan do`sht-shunchaki do`sht.

Boshingga quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida g`oyib bo`ladigan do`sht- do`sht emas.

Boshingga quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida xiyonat qiladigan do`sht- dushman.

Boshingga quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida izingdan qolmaydigan do`sht- haqiqiy do`sht.

(O`tkir Hoshimov)

NAZORAT DIKTANT

Mukofot va jazo

Mahmud G`aznaviyning otasi Sabuktegin davlat ishlarini boshqarayotgan paytlarida o`g`li shahzoda Mahmudni yonida olib o`tirar ekan.

Bir kuni Sabuktegin kechasi ko`rgan tushini munajjimga so`zlab berib, ta'birini so`rabdi. Munajjim bilag`on bo`lsa da, dilozor, dag`al so`zli ekan. U tushga shunday ta'bir beribdi:

- Shohim, sizning barcha yor-u do`shtlaringiz o`lib ketadi, siz yolg`iz qolib, ko`p azob chekasiz.

G`azablangan Sabuktegin munajjimning tilini kestiribdi va xuddi shu tushni tadbirdor, munozarali, oqil vaziriga aytibdi. Dona vazir bu tushga shunday ta'bir beribdi.

- Shohim, bu qutlug` tush sizga muborak bo`lsin. Sadaqalar bering, bandilarni zindondan ozod qiling. Tangri sizni barcha yor-u do`shtlaringizdan uzoqroq umr ko`rish baxtiga tuyassar qiladi.

Sabuktegin vazirini zar to`n bilan taqdirlab, unga ruxsat bergach, o`g`liga debdi:

- O`g`lim, har ikkalasi ham bir fikrni aytdi.
- Ammo qay tarzda, - deb e'tiroz bildiribdi shahzoda.
- Gap xuddi mana shunda-da. Qarang, biri jazoland, biri esa taqdirlandi, - deb ziyrak o`g`lining fikrini ma'quilladi Sulton.

Nochorlik nimadan ?

Tog` qishloqlaridan birida kuchli sel bosibdi. Sel bir xonodonning Hasan va Husan ismli egizaklarini ham oqizib ketibdi. Bu qishloqdan ancha quyidagi bir joyda Hasanni bir cho`pon, boshqa yerda Husanni bir hunarmand qutqaribdi va o`zlariga

asrandi o`g`il, aniqrog`i, xizmatkor qilib olibdi. Bolalar qiyinchilik bilan ulg`ayibdilar.

Bo`s, kamharakat va qo`rroq Hasan tushkunlikka tushibdi va taqdirim shu ekan deb, cho`ponga xizmatkor bo`lib qolaveribdi.

Husan esa tabiatan tirishqoq va dadil ekan. U qunt bilan ishlabdi, hayotni diqqat bilan o`rganibdi, oqilona harakat qilibdi. U tezda hunarmandlik sirlarini o`zlashtiribdi, halol ishlab, asta-sekin o`z ishini tashkil etibdi. Yosh hunarmand o`z kasbiga, uyiga, bola-chaqasiga, do`koniga ega bo`libdi, zavqli mehnat bilan tinch yashay boshlabdi.

Kunlardan bir kuni aka-ukalar bir-biri bilan topishibdi. Shunda Hasan taqdiridan, nochorlikdan nolibdi. Ukasi Husan esa qanday qilib baxtli bo`lgani, o`z harakatlari, tadbirkorligi haqida so`zlab beribdi.

Shuning uchun ham xalqimiz: «Nochorlik-harakatsizlikdan», deydi.

Asaka avtomobil zavodi

«O`zDEU avto» kompaniyasi – O`zbekiston avtomobil sanoatining to`ng`ich korxonasi sifatida ish boshladi. Zavodning ishga tushirilishi tufayli O`zbekiston jahonda o`z avtomobil sanoatiga ega bo`lgan 28 mamlakat qatoridan o`rin oldi. Asaka avtomobil zavodi Andijon viloyatining Asaka shahrida 1994-1996 yillarda qurilgan. Avtomobil zavodi «Neksiya», «Lasetti», «Tiko», «Matiz», «Damas» yengil avtomobillarini ishlab chiqaradi. Ular Koreya, Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya, Italiya mamlakatlarida ishlab chiqarilgan avtomobillardan qolishmaydi.

Bu korxona Janubiy Koreyaning «DEU» korporatsiyasi bilan hamkorlikda barpo etilgan. Ularning yillik loyiha quvvati 200 ming dona yengil avtomobillar ishlab chiqarishni ko`zda tutadi.

Milliy kurash

Milliy kurash juda qadimiylar tarixga ega. Qadimda quroq bo`lmagan paytda polvonlar dushman ustidan g`alabani ta'minlaganlar.

Turkiy xalqlar tarixida ayollar ham kurash tushishgan.

Hozirgi kunda Farg`onacha kurashda raqiblarni chalish, yonboshga olish, yelkadan oshirib otish, boshdan oshirish usullari ta'qilanganadi. Bu kurash qadimgi kurash usuliga yaqin turadi.

Kurash insonni kuchli, epchil, irodali va chidamli qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. 12 yoshdan kurash bilan shug`ullanish tavsiya etiladi.

1992-yilda O`zbekistonda Kurash federatsiyasi tuzildi. 1999-yilda Toshkentda kurash bo`yicha 1-jahon championati bo`lib o`tdi.

O`zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

Madhiya-“madh”, “maqtov” so`zidan kelib chiqqan. Madhiya-gimn o`z mustaqilligiga ega bo`lgan har bir mamlakatning alomati, ramzi. Madhiya tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Diniy, jangovar mazmunga ega bo`lgan madhiyalar ham ma’lum.

O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi (matni va musiqasi) tanlovida so`zini shoir Abdulla Oripov, musiqasini bastakor Mutal (Mutavakkil) Burhonov yozgan madhiya g`olib chiqdi va o`n ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi (1992-yil 10-dekabr) da O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi sifatida tasdiqlandi.

O`zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi tantanali damlarda ijro etiladi.

8-sinflar uchun TA’KIDIY DIKTANT

1-namuna. Matnni o`qing. Fe’llarni topib, nisbatini aniqlang.

Abdulla Avloniy o`z ishini maktab ochishdan boshladi. Gazeta chiqardi, yozdi. Kitoblar bostirdi. Teatr ishlarini yo`lga qo`ydi. O`zi pesalar yozdi. Havaskorlarni yig`ib, tomoshalar ko`rsatdi.

Abdulla Avloniy o`z xizmatlari bilan o`zbek ma’rifatchiligiga juda katta hissa qo`shdi. Yangi zamonaviy o`qitishni ilmiy-amaliy asoslab berdi.

(«Gulxan» dan)

2-namuna. Quyidagi matnda tinish belgilarining qo`llanish sababini aytib bering.

Hayot har bir kishi uchun bag`oyat aziz va muqaddasdir. Inson farog`atda yashamoq uchun sidqidildan mehnat qilishi, bilim-ma’rifat egallashi, ezgulik yo`lida tinmay kurashishi va eng muhimi, insoniy-ma’naviy fazilatlar – odob, go`zal axloqda kamolotga yetishishi, kamtarinlik sharafiga tuyassar bo`lishi ham farz, ham qarzdir.

Odamzotning taqdirini odamzot hal qiladi, degan mag`zi to`q gapda ham bir olam ma’no bor... Bir-biriga yaxshilik, sof mulozamat, tiniq iltifot, hamdardlik, mehr-u oqibat, yuksak muruvvatlilik, o`zaro qadr-qimmatni bilish, bir-biriga do`stona yordam, sadoqatlilik-bularning hammasi insonning taqdirini hal qilishda katta rol o`ynaydi.

(Sh.Orifiy)

3-namuna. O`qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Qanday gaplar borligini ta'kidlang.

Siz Po`lat Mo`minni bilasizmi u o`zbek bolalar shoiridir. Siz Po`lat Mo`minning «Ertaklar yaxshilikka yetaklar», «Odob va oftob» she`riy to`plamlarini o`qiganmisiz. Bular bolalarimizning eng sevimli kitoblariga aylangan.

4-namuna. Rivoyatni o`qing. Undagi sodda gap, yig`iq gap va yoqiq gaplarni aniqlang.

Bir cholning to`rtta navqiron o`g`li bor ekan. Bir kuni chol:

- Men qarib qoldim. Ichingizdan kim aqli va davlatmand bo`lsa, menga merosxo`r bo`ladi, - debdi.

Eng katta o`g`il qizil yoqut ko`zli oltin uzugini, ikkinchi o`g`il zarbof chophonini, uchinchisi bebaho kamarini ko`rsatib maqtanibdi.

Chol indamay turgan kenja o`g`ilga qarabdi.

- Menda bunday boyliklar yo`q, lekin mehnatkash qo`lim, botir yuragim, aqli boshim bor, - debdi u.

Uning javobi cholga yoqibdi. Kenja o`g`ilga bor merosini qoldirishini tayinlabdi.

(Rivoyat)

5-namuna. O`qing. Undalmalarni aniqlang va ular qaysi so`z turkumiga oidligini ta'kidlab o`ting.

Istiqlol mash'ali

Istiqlol! Mustaqillik ! Ollohga shukrkim, bu orzuga ham yetishdik.

Istiqlol! Bu kunga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Bu kunga yetishmoq orzusida ne-ne kurashlar bo`lmadi! Ne-ne farzandlarimiz jonlarini fido qilib, qurban bo`lib ketmadilar! Istiqlolning bu qadar jon fido qilgulik nima sehri bor?! Ne mo`jizasi borki, asrlar bo`yi insoniyat istiqlol uchun intiladi, hatto bir quloch qaqrqoq yer bor xalqlar ham mustaqillik uchun jon olib, jon berib kurashadilar.

Mustaqillik! Bu – ko`zlarimizga to`tiyo! Uning bundan buyongi yo`llarimizni yorituvchi mash'ali har birimizning dillarimizga chuqur kirib borgandagina abadiy bo`ladi. Biz bunga qodir xalqmiz.

IZOHЛИ DIKTANT

1-namuna. Berilgan matnni o`qing. Qanday gap turlaridan foydalanganligini ayting. Tinish belgilarining vazifasini izohlang.

Yalqov

Ariq bo`yida turgan qariya shu o`rtada o`ynab yurgan bolaga yalindi:

- Hoy o`g`lim, bu yoqqa kel, tezroq!

- *Nima ishingiz bor, aytavering, - dedi bola yaqin kelmay.*
- *Ariq chuqur ekan, qo`limdan ushlab tur – suv olvolay*
- *Ey, engashib oloqoling – da o`zingiz !*
- *Belim bukilmaydi, dardmandman, - dedi gariya o`ksinib.*
- *Yonboshlab paqirni suvgaga solsangiz to`ladi, keyin asta ko`tarasiz. Shu ham ish bo`pti-yu*
- *Aql o`rgatguncha, yordamlashib yuborsang-ku, olam guliston edi, bolam, - dedi chol.*
- *Ha, hammaning ishini qilaverib, malay bo`lib qolaymi? – dedi bola yalqovlanib.*
- *O`ta ketgan yalqov ekansan, - dedi keksa va qiyinalib suv ola boshladi. Yalqov esa pinagini buzmay, o`yin bilan ovora edi....*

(Sh.Sa'dieva)

2-namuna. Berilgan matnni o`qing, - **gach** (-**kach**, - **qach**), - **guncha**, (-**kuncha**, -**quncha**) qo`shimchalari qatnashgan ravishdoshlarni aniqlab, ularning imlosiga e'tibor bering.

Uch og`a – ini safarda

Ota o`g`illarining peshonasidan o`pib xayrlashibdi. Og`a-inilar erta sahardan yo`lga chiqibdilar. Ular kun bo`yi yurib, qosh qoraygach, bir manzilga yetibdilar. Botirlar ovqatdan so`ng bir oz dam olgach, o`zaro maslahatlashibdilar. Ular kechani uch bo`lakka bo`lib, har bir bo`lagida galma-gal poyloqchilik qilishadigan bo`libdi.

To`ng`ich botir poyloqchilik navbatida sherni o`ldiribdi. Keyin ukalarining yoniga kelib o`tiribdi.

O`rtanchi botir poyloqchilik navbatida hech qanday hodisa bo`lmabdi. Oxirida uchinchi botir tong otguncha poyloqchilik qilibdi, hech narsa bo`lmabdi. Birinchi kecha shu bilan tugabdi.

Kun chiqqach, botirlar yana yo`lga tushibdilar

Kun botgach, bir tog` etagiga kelib tushibdilar, otlarini o`tga qo`yib, o`zlarini dam olibdilar. Ovqatlarini yeb bo`lishgach, avvalgiday poyloqchilik navbatini to`ng`ich botirga berilibdi...

3-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. Gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlarini aniqlang va izoh bering.

Bir pashsha qir tarafdan uchib kelayotgan bolarini ko`rib: «Oh, birodar! Bir boshing uchun muncha harakat qilasan! Sen ham men kabi rohatda yashasang, bo`lmaydimi, chunki mening hayotimda hech bir mashaqqat yo`q.. Insonlar tomonidan hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichib, umr o`tkazaman. Ba`zi vaqtarda sen yiqqan bolingdan ham to`ygunimcha yeyman.

*Yashamoq mana! Umr kechirmoq uchun olamda bundan yaxshi sharoit bo`ladimi?
Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uy solmoq kulfati bor», - dedi.*

(«Gulxan» dan)

4-namuna. Matnni o`qib, undagi sodda gaplarni ko`chirib yozing.

Kabutar va chumchuq

Bir chumoli suvgaga tushib, cho`kib ketayotgan edi. Uni ko`rgan kabutar darhol tumshug`iga bir somon cho`pini olib chumoliga uzatdi. Chumoli so`nggi quvvatini to`plab, cho`pga osildi. Kabutar chumolini qutqarib qoldi. Chumoli kabutarga qanday rahmat aytishini bilmasdan unga mehr bilan qaradi. Kabutar uchib ketdi. Kunlardan bir kuni Chumoli bir ovchining kabutarni nishonga olib turganini ko`rdi. Chumoli bor quvvati bilan yugurib, ovchining yoniga bordi. Oyog`idan o`rmalab, boshiga chiqib oldi va ko`zidan shunday chaqdiki, ovchijon achchig`ida miltig`ini qo`lidan tushirib yubordi. Kabutar ham ovchini ko`rib qolib uchib ketdi.

(*Sharq hikoyasi*)

5-namuna. Gaplarni qiyoslang. Ular orasidagi o`xshashlik va farqlarni topib uni izohlang.

1. *Kitob-mening doimiy do`stim. – Kitob, mening doimiy do`stimsan.*
2. *O`zbekistonning har bir qarich yeri biz uchun muqaddas. – O`zbekiston, har bir qarich yering biz uchun muqaddas!*
3. *Paxtakorlar g`o`zaga ishlov berishni kuchaytirdilar. – Paxtakorlar, g`o`zaga ishlov berishni kuchaytiringiz!*
4. *O`quvchilar dam olish kunini ko`ngilli o`tkazadilar. – O`quvchilar, dam olish kunini ko`ngilli o`tkazing.*

LUG`AT DIKTANT

1-namuna. Quyidagi izohli lug`atni alifbo tartibida joylashtiring.

Muzaffar – g`olib

Tamg`a – belgi, nishona, muhr

Cho`lpon – yorug` tong yulduzi, Venera

Zog`ora – jo`xori unidan yopilgan non

Anjuman – majlis, yig`in

Jafو – zulm, sitam

Darbadar – daydi, sayoq

Bashar - inson, odamzod

Mangu – abadiy, boqiy

Kokil – soch o`rimi

Tanbeh – koyish, ogohlantirish yoki jazo

Sado – ovoz, tovush

Ramz – shartli belgi, ishora, simvol

Qodir – qudratli, kuchli

Samara – natija, oqibat

Aljabr – algebra

Furqat – ayriliq, firoq

Dono – bilimdon olim

Hokim - hukmdor

2-namuna. Quyidagi berilgan modal so`zlarni gap boshida, o`rtasida va oxirida qo`llab gap tuzing, ularda vergulning ishlatalishiga ahamiyat bering.

Demak, menimcha, albatta, mutlaqo, xullas, koshki, qaniydi, aytishlaricha, sizningcha, axir, ajabmas, tabiiy, chamsasi, shekilli.

3-namuna. Berilgan qo`shimchalardan nisbat qo`shimchalarini ajrating. Ularni fe'l asoslariga qo`shib gaplar tuzing.

- gach, - t, - uv, - ir, - n, -guncha, - la, - in, - il, - tir, - giz, - l, - gon, - chi, - li, - iz.

4-namuna. Berilgan taqlid so`zlarni tovushga va holatga taqlid so`zlar qilib ajrating va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Gumbur-gumbur, chars-churs, shitir-shitir, g`a-g`a, di-dit, yarq-yurq, qiy-chuv, taq-tuq, ship, tars, qirs, vov-vov, lip-lip.

5-namuna. Fe`llarni tuzilishiga ko`ra turini aniqlab, jadval shaklida joylashtiring. (Sodda fe`llar, qo`shma fe`llar, juft fe`llar)

Berdi-qo`ydi, sotib olmaq, sotmoq, yuzlanmoq, o`lchanmoq, qaltiramoq, uyqisiramoq, ko`karmoq, burmoq, qo`l urmoq, xatlamoq, kulmoq, javob bermoq, nazar solmoq, olib chiqmoq, aytdi-qo`ydi, sindi-qoldi.

SAYLANMA DIKTANT

1-namuna. Matnni yozing. Fe`llarni ajrating. Ularning nisbatini aniqlab, ma'nosini tushintiring.

Nonning nomi ulug`, nomidan ham o`zi ulug`. Bolaga ins-jins ziyon yetkazmasin deb, ona o`z go`dagi yostig`i ostiga non qo`ygan. Ota o`g`lini o`zga yurtga safarga otlantirib, oq fotiha berarkan, «balo-qazolardan saqlaydi» degan ma'noda farzandining qo`liga non tutqazgan.

Yo`lga chiqqan bahodirga ota-onasi yoki suyuklisi non tishlatgan. Toki non-nasiba tortib, u uyg'a sog`-salomat, beshikast qaytsin.

Xastani, keksalarni ko`rish, ustozni ziyorat qilish, hol-ahvol so`rash uyiga non tugib borishdan boshlangan.

(«*Oltin sandiq ochildi*» kitobidan)

2-namuna. Matnni o`qing, unda qanday g`oya ilgari surilganini ayting. So`ng sodda yoyiq gaplarni aniqlang.

Ikki xil yordam

Bir xotin sabzavotlar solingen og`ir to`r xaltasini ko`tarib kelayotgandi.

Orqada ketma-ket ikki bola ularning ketidan bir chol ketmoqda edi. Bir mahal to`r xaltadan bir kartoshka tushib dumalab ketdi.

- *Xola, kartoshkangiz tushdi, - deb birinchi bola o`tib ketaverdi.*

Ikkinchchi bola hech narsa demadi-yu, yerdagi kartoshkani olib, to`r xaltaga soldi. Orqadan yetib kelgan chol bolaga:

- *Baraka top, bolam, - dedi.*

(H.Murodov)

3-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. Undagi uyushiq bo`laklarini aniqlang, tinish belgilariga diqqat qarating.

Ona - Vatan

Har bir kishining o`sgan joyi uning aziz vatanidir. Biz O`zbekistonda yashaymiz, O`zbekiston – bizning Vatanimiz. Vatanimiz keng va bepoyon. Unda yam-yashil vodiylar, baland tog`lar, katta daryolar, o`rmonlar, cho`l va sahrolar bor. O`zbekistonda gaz, neft, mis, ko`mir kabi yer osti boyliklari ko`p. Paxta, bug`doy va sholidan mo`l hosil olinadi. O`zbekiston o`zining shirin qovun-tarvuzlari, olma-uzumlari bilan dunyoga mashhur.

O`zbekistonda turli millat vakillari – o`zbeklar, ruslar, tatarlar, qozoqlar, tojiklar, qirg`izlar inoq va do`st bo`lib yashaydilar. Ular ham faxr bilan: «O`zbekiston – mening Vatanim» - deydilar.

4-namuna. Quyidagi she`rni diqqat bilan o`qing. Undagi tasdiq, inkor, taklif yoki istak so`z-gaplarni toping. Mazmunini o`zaro sharhlang.

Hunarni sev

*Hunarni sev, hunarni,
Hunar senga asqotar.
Hunar otin soni yo`q,
Sanasang qator-qator.*

*Mayli, durodgor usta,
Chilangar bor, xohishing.
Xalqqa biror manfaat,
Yetkazsin qilgan ishing.*

*O`rgan, sen ham yigitsan,
Yetmish turi oz senga.
«Hunarli el kam bo`lmas»,
Maqolin ol esingga.*

*Binokor bo`l, ha, balli,
Bizga soz uylar kerak.
Bastakor bo`l, marhamat,
Sho`x, shirin kuylar kerak*

(Tolib Yo'ldosh)

5-namuna. Matnni ifodali o`qing. Fe'llarni topib ularni tahlil qiling. Nisbatlarni aniqlang.

Saxiy bir podshoh bor edi. Saxiyligidan xalq uni hurmat qilar edi. Uning bir quli bor bo`lib, xizmat darajasi bakovullik edi.

Kunlardan bir kuni podshoh bazm qilibdi. Ovqat vaqt ekan, podshohning ham ishtahasi yaxshi bo`lib turganda, falokat bosib, bir tosh qulning oyog`iga urildi. Shunda qul issiq oshni podshohning boshiga to`kib yubordi. Odamlar:

- *Podshoh endi uni o`ldiradi. Gunohiga loyiq jazo shudir! – deyishdi.*

Shoh esa qulning xafaligini ko`rib, kechirdi hamda ozod qilib yubordi. Vazir dedi:

- *Ey, saxiylikda beg`araz shoh, unga tig`dan boshqa narsa loyiq emas edi-ku?!*

Shoh esa zavq qilib, lutf bilan dedi:

- *Hijolat o`zi uni o`ldirib bo`ldi. Hech kim o`lgan o`likni boshqatdan o`ldirmagan, boshiga esa jazo tig`in tortmagan. Xalq ichida kim eng gunohkor bo`lsa, o`sha avf va inoyatga eng ko`p sazovordir.*

(A.Navoiy «Hayrat ul-abror» dan)

ERKIN DIKTANT

1-namuna. Quyidagi matnni qunt bilan o`qing. O`zingiz ham tasdiq, inkor, istak gaplar yoki modal so`zlar va undalmalarni qatnashtirib voqeiy hikoya tuzing.

Ikki do`sst uchrashib qolishdi. Ulardan biri dedi:

- *Do`sstim, bir yaxshi hikoya o`qidim, sen ham tingla.*

- *Gapir, o`rtoq.*

- *To`rt kishi Afrika bo`ylab sayohatga chiqishdi, deb gap boshladi haligi do`sti.*

– *Yo`lda ularning oziq-ovqatlari tugab qoldi, ikki kun hech narsa yemadilar. Nihoyat, bir qarovsiz kulbaga yetib kelishdi. Shunda sayohatchilardan biri: - Men chiqib*

birorta hayvonni otib kelaman, - dedi-da, kulbadan chiqib ketdi. Bir oz yurganidan so`ng u to`satdan bahaybat bir sherga duch kelib qoldi. Sher ham och ekan, sayohatchining orqasidan quvlab ketdi. Sayohatchi qo`rqqanidan kulbaga tomon qochdi. Kulbaga endi yetib kelganida qoqilib, yiqilib tushdi. Quvlab kelayotgan sher

- Ha, u yog`i nima bo`ldi?

- U yog`ini bilsam aytib berardim, biroq kitobning keyingi sahifasi yo`q, yirtilgan.

- Qaysi nodon kitobni yirtibdi? – deb yubordi do`sti achchiqlanib.

Shunday qilib, ikki do`st shirin ovqatga to`ymagandek nochor qolaverdilar. Varag`i yirtilgan kitob-mayib kitob, qanotsiz qush.

(«Donolar xazinasi»)

2-namuna. Gaplarni ko`chiring. Sodda va qo`shma fe'llarni ajrating. Matnga o`z munosabatingizni erkin turda bayon qiling.

Kunlardan bir kuni Durroj: «Men tuzoqqa tushdim! – deb sherni aldadi. Sher uning aldagani ko`rib: «Meni aldamagil, yolg`onchidan el nafratlanadi», - desa ham, Durroj quloq solmas, yolg`onchilikni, aldashni qo`ymas edi. Bir kuni Durroj tuzoqqa ilindi va: «Meni tutib oldilar! – deb qattiq qichqirdi. Sher «Bu gal ham Durroj meni aldayapti», - deb qutqarishga bormadi.

(Alisher Navoiy)

3-namuna. Berilgan she'riy parchani o`qing. Ajratilgan so`zlarning tarkibini aniqlang. She'rdan olgan taassurotingizni erkin bayon qilib yozing.

O`zbekiston

*Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda.
Chappar urib gullagan bog`in,
O`par edim Vatan tuprog`in.
Odamlardan tinglab hikoya,
O`sar edi shoirda g`oya.
Daryolardan kuylab o`tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammagini tinglardim, ammo,
O`xshashini topmasdim aslo.*

(H.Olimjon)

4-namuna. Matnni o`qing. Uyushiq bo`laklarni aniqlang. Uyushiq bo`laklarni qatnashtirib o`zingiz ham matnni davom ettiring.

O`tmishda yosh avlodning jismoniy baquvvat, epchil, chaqqon, jasur, qo`rqmas, dovyurak va matonatli bo`lishi yo`lida qiziqarli o`yinlar kashf etilgan. Xususan, sayil tomoshalarda qoyaga arqon tashlab chiqish va tushish, xodaga chiqib, tuhfani olish, otda va piyoda uloq, yer olish, dehqon-dehqon, tovontepar, kurash, arqon tortish, qo`lda kuch sinash, to`nka yurish, tosh ko`tarish, chillak o`ynash, zuv-zuv, ovush-ovush, (xokkeyning bir turi) chavgon, eshakmindi, eshakquloq, eshakchopdi va hokazolar.

Shuningdek, milliy raqslar: yigitlar o`yini, beshqarsak, cho`pon o`yini, yelka urishtirish, nog`ora o`yini, lagan o`yini ... Bunday o`yin-raqslar yoshlari tarbiyasida muhim hisoblangan. Bundan tashqari, adabiyot, san`at, musiqa va kuy bilan bog`liq «Qissaxonlik», «Qiroatxonlik», «Bahru bayt», «Navoiyxonlik», «Yassaviyxonlik», «Maddohlik» kabi an`analar ham rasm bo`lgan.

(«O`zbekiston ovozi»)

5-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. Uyushiq bo`laklarini aniqlab, ularning sanash ohanggi bilan o`qilishiga rioya qiling. O`zingiz ham Navro`z haqida erkin bayon yozing.

Navro`z ayyomiga atab bobo dehqonlar yerlarni maromiga keltirish, ariq-zovurlarni tozalash, qo`shtanjomlarni tartibga solish, urug`larni saralash, ko`zlangan joylarni urug` qadashga moslash kabi taraddudlarni ko`rsalar, bog`bonlar toklarni ochish, anjir, anor va boshqa mevalarning ko`chatlarni tartibga keltirish, yangi nihollarni ekishga tayyorlash, dov-daraxtlarni butash, payvandlash kabi yumushlarni rejalahtirganlar.

Qisqasi, turli kasb-hunar kishilar, chunonchi, pazandalar bahor elchilar – anvoyi ko`katlardan taomlar, qandolatchilar pechakqand, holva, pashtak, novvot, xo`rozqand, burama qand, kashtachi-yu chevarlar bahor kashtalari, palak-choyshablari, navro`z do`ppilari, ko`ylak liboslari, to`nlari, kamzullari, shuningdek boshqa kasb-hunar kishilar ham navro`zga tayyorgarlik ko`rganlar.

(«O`zbekiston ovozi»)

IJODIY DIKTANT

1-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. Undagi ravishdosh va sifatdoshlarni aniqlang. Mazmunini ijodiy bayon qilib yozishga harakat qiling.

Mehnat, halollik haqida ibratli rivoyat bor:

Bir bola ulg`aygach, otasi unga ishlab pul topib keltirishni buyuradi. Lekin, ko`ngilchan ona: “O`g`lim qo`lini qavartirib qiynalib yurmasin,” -deya, eridan o`g`rincha unga pul beradi. Sezgir ota o`g`li keltirgan pulni o`tga tashlabdi. Bola beparvo, loqayd turaveradi. Bu hol yana takrorlanadi. O`g`lining uchinchi marta

olib kelgan pulini otmoqchi bo`lganida, bola uning qo`liga yopishib, yondirmasligini so`raydi. Ota shundagina bu safar o`g`lining haqiqiy peshona teri bilan pul topganiga ishonadi.

Mehnat bilan topilgan pul qadri mashaqqat bilan qo`lga kiritilgan barcha narsalar singari azizdir.

(“Saodat”)

2-namuna. Matnni o`qing, undan -(**i**)**b**, -(**a**) **y** qo`shimchali fe'l shakllari qo`llangan gaplarni ko`chirib yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

Dunyoning boyligi

(hikoyat)

Eshik taqilladiu. Keksayib qolgan hakim inqillab eshikni ochdi. Bir yosh shogirdi kitob so`rab kelibdi.

-Uyda bo`lganim uchun eshikni qulflab qo`ygandim, bo`tam, kelishingni bilsam seni kuttirmay, eshikni ochib qo`yardim.

Shogirdi ustozining bu gapiga hayron bo`lib so`radi:

-Ey, ustod, uyda bo`lmagan chog`ingiz eshikni qulflamay qoldirasizmi?

Hakim kulib javob qildi:

-Ha, qulflamay qoldiraman, o`zim bo`lmagandan keyin bu uyda mendan boshqa qimmatli qanaqa boylik bor? Bilib qo`y, bo`tam, dunyoda odamdan aziz boylik yo`q.

(T. Rasulov)

3-namuna. Matnni o`qing, uning mazmunini ochuvchi savollar tuzing va ular asosida o`z so`zlaringiz bilan qayta hikoyalang.

Kitob-bilim xazinasi

O`qish. Bu faoliyat insonni ulug`laydi, buyuk kashfiyotlarga yo`l ochadi. Ammo bu imkoniyatdan to`g`ri foydalanmayotganlar ham bor. Insonlar azaldan kitobni muqaddas deb bilganlar. Ko`p kitob o`qish, o`qiganda ham uni tushunib o`qishdan hikmat katta.

Kitob! Undan qudratliroq bilim va hayot maktabi yo`q. Ha, kitob o`qib-o`rganmagan, bu bebaho xazinadan foydalanmagan kishini topish qiyin. Shuning uchun kitobni asrab-avaylaylik, uning ziyosidan boshqalarni ham bahramand etaylik.

4-namuna. Quyidagi undalmalarning davomini ijodiylilik asosida gap qilib tuzing.

1. Muhtaram Umidaxon,
2. Aziz vatandoshlar!.....

3. Hurmatli o`quvchilar!
4. Hoy o`g`lim,
5. Paxtakorlar,

5-namuna. Matnni o`qing. Undagi undalma va uyushiq bo`lakli gaplarni aniqlab ajratib oling. Shu so`zlar asosida o`zingiz qishlog`ingiz haqida ijodiy matn yaratting.

Ona qishloq! Sen naqadar kichik va ko`rimsiz bo`limagin, biz uchun dunyoda eng katta va chiroyli maskansan doim! Sen biz uchun dunyoning o`zisan! Vatan deb faxrlanganimizda, biz, avvalo, poyonsiz dalalariningni, olamdagি bor go`zalliklarni o`z bag`rida yashirib turgan yam-yashil bog`-rog`laringni, anhorlaringda sharaqlab oqqan suvlaringni, bo`stonlaringda muhabbatdan roz aytib, navo bazmini boshlagan bulbullaringni o`ylaymiz. Biz qishloq suvini ichib, qishloqning arpa, zog`ora nonini yeb aqlini tanigan odamlarga Vatan sendan, sening dalangdagi egatdan boshlanadi. Taqdir toshi bizni sendan naqadar yiroqlarga irg`itib tashlamasin, biz qanchalik rohat-farog`atda yashamaylik, o`sha noningning ta'mi og`zimizda turaveradi, qalbimiz to`riga alal-abad jo bo`lgan mehring bilan birlashib, bizni sen tomon undayveradi... Shu boisdan yutuqlarimizni sen bilan o`rtoqlashish, dard-hasratimizni senga aytib, ko`nglimizni bo`shtish uchun doim bag`ringga oshiqamiz...

(Turg`un Po`lat)

XOTIRA DIKTANT

1-namuna. She`rni yod olib yozing. Undagi gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlarini aniqlang, tinish belgilariga ahamiyat bering.

Hasharga borganda

<i>Chorlab bizni hasharga</i>	<i>Bog`ga yetib borgan kez,</i>
<i>Ketgan edi xolamiz,</i>	<i>Dovuchcha teramiz deb,</i>
<i>Maslahat qildik shunda:</i>	<i>O`rikka tirmashdik tez.</i>
<i>- Boramizmi?</i>	
<i>- Boramiz!</i>	<i>Keyin ishkom oralab,</i>
	<i>Quvlashmachoq o`ynadik.</i>
<i>Ketmon oldim qo`lga men,</i>	<i>Esdan chiqdi yumush ham,</i>
<i>Nodir esa belkurak,</i>	<i>Irg`ishladik – quvnadik!</i>
<i>Endi bog`da kechgacha</i>	<i>- Oshga ! –</i>
<i>Rosa ishlasak kerak.</i>	<i>Deya bir mahal</i>
	<i>Ovoz berdi xolamiz.</i>
<i>Yo`q</i>	<i>Uyat! Ovqat yeyishga</i>
<i>Yanqlishgan ekanman.</i>	<i>Endi qanday boramiz?</i>

(S.Inoyatov)

2-namuna. Yoddan yozishga tayyorlaning. Unga o`zingiz sarlavha qo`ying. Uyushiq bo`laklarini toping.

*Bizlar yetti og`ayni:
Men, Anvar, Ramz, G`ani,
Tolib, Uchqun va Quvnoq
O`ynaymiz ahil, inoq,
Tengdir hatto yoshimiz,
O`xshash ko`z-u qoshimiz.
A'lochimiz o`qishda,
Namunamiz har ishda,
Havas qilar odamlar,
Xursand oyim, dadamlar.
Birdir niyat, gapimiz.
Bundan so`ng ham safimiz
Ko`payadi albatta,
Inoqlikda gap katta.*

(Ibrohim Donish)

3-namuna. Matnni uch marta diqqat bilan o`qing, so`ng xotirangizda qolganini yozing.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizga xos bo`lgan eng muqaddas tuyg`u va tushunchalarning mujassam ifodasi bo`lishi kerak.

Misol uchun, Vatan tuyg`usini olaylik. Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug`iladi. Ya`ni, inson o`zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg`usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo`lsa, tug`ilib o`sgran yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo`ladi.

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singgan. Ona tili – bu millatning ruhidir. O`z tilini yo`qotgan har qanday millat o`zligidan judo bo`lishi muqarrar.

Boy va go`zal ona tilimiz bilan uzviy bog`liq holda o`chmas milliy qadriyatlarimiz ham mafkuraviy tarbiyamizning muhim bir qismi bo`lmog`i lozim.

(I.A.Karimov. «Milliy istiqlol mafkurasi xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»)

4-namuna. Ma'rifiy matnni o`qing. Mazmunini yoddan yozishga urinib ko`ring.

Ma'rifiy matn

Allakim, allaqayer, allaqanday kabilar gumon olmoshlaridir. Guman olmoshlari so`roq olmoshlariga alla so`zi va – dir qo`sishmchasini qo`sish bilan hosil bo`ladi. Ular so`roq olmoshlariga noaniqlik ma'nosini kiritadi.

Guman olmoshlari so`zlovchi uchun noaniq bo`lgan narsa, harakat, belgi kabilarga ishora qiluvchi so`zlardir.

5-namuna. She'rni o`qing. She'riy parchaning nechta gapdan tashkil topganini aniqlang.

*O`zbekning kurashi hamisha halol,
Unda yo`qdir g`irrom, yo`qdir yomonlik.
Doimo do`stlarga tilaydi kamol,
Tilaydi barchaga do`stlik, omonlik.*

(Rustam Musurmon)

GRAMMATIK TOPSHIRIQLI DIKTANT

1-namuna. Matnni o`qing. Qavs ichidagi qo`sishchalardan mosini qo`yib, fe'lning vazifa shakllarini hosil qiling.

Bir bog`bon birovning bog`ini parvarish qilar edi. Bog`da bir olma daraxti bo`l (-gani, - yotgan, - ib), mevasi juda pish (-ib, ish, -gani) i bilan bog` egasining oldiga olib borardi. Bu gal ham bog` egasi keltiril (-kan, -qan, - gan) olmadan g`oyat xursand bo`ldi va uni o`z hovlisiga keltir (-ay, -guncha, -ib) o`tqaz (-gani, - ish, -guncha) ni buyurdi. Ko`chiril (-ib, - y, - gan) olma daraxti qurib qoldi.

Ochko`z bog` egasi olmaning boridan ham ajralib qoldi.

(Rivoyat)

2-namuna. O`qing. Chiziqchalar o`rniga gapning mazmuniga mos qo`shma fe'llarni qo`yib yozing.

Karmoncha voqeasi

Yo`lda opa-uka – Lola va Anvar borishardi. Ulardan oldinda esa karmoncha ushlagan bir kampir borardi.

Kampir yo`lda karmonchasini ______. Birinchi bo`lib buni Anvar _____. Engashib karmonchani oldi, keyin chopib kampirga ______.

- Buvi, karmonchangizni _____.

*Kampir karmonchasini olib cho`ntagiga _____ va yo`lida
_____. Anvar opasining oldiga _____ va kampirning
rahmat aytmaganidan _____.*

*Halollik – sening burching. Halollik uchun ham rahmat aytish kerakmi? – dedi
opasi. Anvar karmoncha to`g`risidagi voqeani bir umr _____.*

(«G`uncha»)

Qo`yish uchun so`zlar: davom etdi, eslab qoldi, tushinib qo`ydi, ko`rib qoldi,
solib qo`ydi, yetib oldi, tushirib qo`ydingiz, qaytib keldi, shikoyat qildi.

3-namuna. Har bir gapning egasini undalmaga aylantirib, gaplarni qayta tuzib
ko`chiring, zarur tinish belgilarini qo`ying. Tuzgan gaplaringizni o`qib, maqsadga
ko`ra turlarini aniqlang.

1. *Badiiy havaskorlar to`garagi qatnashchilari mashg`ulotlarga muntazam qatnashmoqdalar.*
2. *Dehqonlar davlatga paxta sotish rejasini muddatidan ilgari bajardilar.*
3. *O`quvchilar gazeta va jurnallarga obuna bo`lmoqdalar.*
4. *O`quvchilar kutubxonadan foydalanish qoidalariga rioya qiladilar.*

4-namuna. Berilgan gaplarni tinish belgilariga rioya qilib o`qing va har bir gap
ma`nolarini izohlang.

*Ona-bog`bon niholini toptirar kamol.
Ona-bog`bon, niholini toptirar kamol.
Ona, bog`bon niholini toptirar kamol.
Ona! Bog`bon niholini toptirar kamol.*

5-namuna. She`rni o`qing, undagi undalmalarni aniqlang. Tinish belgilarni
qo`yib ko`chiring.

*Bu qasidam senga xalqim
Oq sut u tuz hurmati.
Erkin o`g`lingman qabul et
O`zbegin jon o`zbegin.*

(E.Vohidov)

NAZORAT DIKTANT

O`zbek maqollari

*Maqol xalq og`zaki ijodiga oid janrlardan biri sanaladi. Maqollar shaklan
qisqa bo`lgani bilan ularda juda keng ma`no mujassam bo`ladi.*

*Tilimizning bu bebaho boyligini o`rganish bilan ajdodlarimiz qadimdan
shug`ullanib kelganlar. Mashhur qomusshunos Mahmud Qoshg`ariy XI-asrdayoq*

turkiy xalqlarning 400 ga yaqin hikmatli iborasini o`zining uch jildlik lug`atiga kiritgan. Ularning 250 dan ortiqrog`i shakl va mazmuniga ko`ra hozirgi o`zbek tilidagidan farq qilmaydi.

Mashhur masalchi Gulxaniy (XIX-asr) 200 ga yaqin hikmatli iborani to`plab, ularni bir tizimga jamlab, «Zarbulmasal» asarini yaratgan.

Adabiyotshunos olimlarimiz «O`zbek xalq maqollari» kitobida 1800 ta maqolni 31 mavzuga ajratib tavsiflashgan.

Cho`lpon

Asl ismi – sharifi Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon 1893-yilda Andijonda tug`ilgan. O`zbek shoiri, tarjimon va san'atshunos olimi. Cho`lpon – uning adabiy taxallusi. U avval madrasada, keyin rus-tuzem maktabida ta`lim olgan.

Cho`lpon bir qator ro`znomalarda xizmat qilgan. O`zbekiston badiiy studiyasi va boshqa tashkilotlarda yuqori lavozimlarda ishlagan.

Cho`lpon ajoyib shoир, mohir tarjimon va adib edi. 1929-yildan Cho`lponga hujum boshlandi. O`zbekiston madaniyat xodimlari 2-qurultoyida uni zaldan haydab chiqarishdi.

1937-yilda shoир qatl qilindi. Istiqlol yillarida o`zbek xalqining munosib farzandi qadr-qimmat topdi.

Chotqol

Chotqol – tog`loring shohi. Bu gap bejiz aytilmagan. Darhaqiqat, uning savlat to`kib turishini ko`rsangiz o`zingiz ham ishonasiz bu gapga. Ana tog` cho`qqisi. Oh, qanday go`zal manzara... Quyosh bu tog`ga o`zining zarrin nurlarini ayamay hadya etadi. To`rt faslda ham Chotqol ko`rkam va betakror xislatga ega. Chotqol tog`lari haqida olimlarning shunday xulosalari berilgan: «Chotqol suvining zahirasi bitmas tunganmasdir. Lekin bu zaxirani kamaytirmay, ko`paytirish zarur».

Mutal Burhonov

Tabiatdagi o`ziga xos nozik tarovatlarni shoirlar she`rga solsa, musavvirlar bo`yoqqa ko`chiradi, musiqachi esa kuy va qo`sishlarda ijro etadi. Bastakor Mutal Burhonov qadimiy Buxoroda o`sdi. U qadimiy obidalar sehri, tabiat go`zalligidan qattiq ta`sirlanar, qalbida ajib tuyg`ular jo`sh urar, quvonchdan vujudi to`lib-toshib nimadir aytish, cho`qqilarga qarab hayqirgisi keladi. Bularning hammasi bir kuy, qo`sish, yirik shakldagi musiqa asarlari bo`lib otilib chiqdi. Uning ijodi o`zbek musiqasining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi.

Ustoz asarlarining fazilatlaridan biri milliylikdir. Mutal Burhonov musiqa san'atimizni rivojlantirib, uni bir qator yangi musiqa asarlari bilan boyitdi.

Ustoz yaratgan nodir asarlar asl san'at namunasi sifatida yillar osha yashaydi.

Muqaddas shahar

Islom olamida gultoj, muborak shahar bo`lgan Buxoro qadimdan hozirgacha muqaddas hisoblanadi. Mustaqilligimiz sharofati bilan ko`hna va navqiron Buxoroning Sharqda, xususan, musulmon olamida shuhrati yanada ortib bormoqda.

Haqiqatan ham, Buxoro Islom uyg`onishi davrining eng ulkan va asosiy markazlaridan bo`lgan. Bu shahar va unga tobe hududlarda yashagan yuzlab olim-u tabiblar, muhandis-u tafsirchi olimlar uning obro`-e `tiborini ko`kka ko`targanlar. Al-Narshaxiy «Tarixi Buxoro» asarida «Agar Buxoro olimlarining hammasini zikr qilsak, bir necha daftarni tashkil etadi», - deb yozgan.

9-sinflar uchun TA'KIDIY DIKTANT

1-namuna. Quyida berilgan matnlarda tinish belgilarining qo`llanish sabablarini aytib bering.

Hasad

Aytishlaricha, Iskandar zamonida shunday bir dahshatli hayvon paydo bo`libdiki, unga hech kim bas kela olmabdi.

Nihoyat, bu baloni daf qilish chorasini Arastu hakim topdi. Uning buyrug`i bilan juda ham katta oyna tayyorladilar, u oyna orasida bir-ikki kishining bekinib o`tirishi mumkin edi. O`sha oyna sig`arlik juda katta arava tayyorlab, uni aravaga ko`tarib qo`ydilar. Aravani u jonivor turadigan joyga yaqinroq yerga keltirib qo`ydilar.

Jonivor odam isini olib, arava tomonga qarab kela boshladi. Aravaga yaqin kelgan edi, ko`zi oynaga tushdi, oynada o`z suratini ko`rib darrov yiqilib o`ldi. Iskandar bu ishdan juda taajjublanib, Arastudan buning hikmatini so`radi:

-E, Iskandar, bu jonivor yer ostida bir necha yil yotgan bug`lardan vujudga kelgandi, uning ko`zida zaharli qotil bor edi: kimga ko`zi tushsa, u darrov o`lardi. Men oldiga oyna olib bordim, uning aksi oynada paydo bo`ldi, nazari unga tushdi. Bu nazar u aks etgan oyna vositasi bilan o`ziga qaytdi va o`z nazarining asari o`ziga urib halok bo`ldi.

Iskandar Arastuga tahsin o`qidi. Hasadning yomonligi o`ziga qaytadi. O`t kuydirish uchun biror narsa topmasa, o`zini o`zi kuydiradi.

("Ipak yo`li afsonalari"dan)

2-namuna. Matnni o'qing. Uyushiq bo`laklarni topib, ularning tuzilishiga diqqat qarating.

Oybek

Oybek 1905-yilda Toshkentning eski shahar qismida tug`ildi. Asli ismi Muso Toshmuhammad o`g`li bo`lib, Oybek uning taxallusidir.

Oybek "Fanga yurish", "Sozim", "Na'matak" kabi ajoyib she'rlar muallifi. U nafaqat shoир, balki buyuk adib hamdir. Navoiy hayoti va faoliyatini chuqur o`rganish natijasida u 1944-yilda "Navoiy" romanini bitadi. Bu asar ulug` mutafakkirga qo`yilgan o`ziga xos yodgorlikdir.

Oybek nafaqat shoир, yozuvchi, balki mohir tarjimon ham. U Pushkin, Lermontov, Tolstoy kabi rus klassiklari asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan.

Oybekning asarlari esa rus, ukrain, qozoq, tojik, fransuz, nemis, chex, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Atoqli shoир, adib, davlat va jamoat arbobi akademik Muso Toshmuhammad o`g`li Oybek 1968-yilda vafot etdi.

3-namuna. She'rni o`qing. Uyushgan bo`laklarni ajrating, bog`lovchilarni aniqlang. Qo`yilgan tinish belgilarni tushuntirib bering.

*Osmon go`zal oyi, quyoshi bilan,
Inson go`zal mardlik, bardoshi bilan,
Fazilati, odobi, xulqi bilan,
Chin xislati-noyob qalb mulki bilan,
Inson go`zal kuyi, g`azali bilan,
Donish matal, maqol, masali bilan.
Teranlikning timsoli ummondadir,
Inson emas, inson inson bo`lmasa,
Go`zallikda qalbi bo'ston bo`lmasa*

M. Ikrom

4-namuna. Gaplarni –dir qo`shimchasisiz ko`chirib yozing. Tireni nima uchun qo`yib chiqqanqingizni ta'kidlang.

1. *O`zbekiston barchamizga Ona-Vatandir.* 2. *Har bir millatning urf-odatlarini hurmat qilish burchimizdir.* 3. *O`zbek tili O`zbekistonning rasmiy tilidir.* 4. *Alisher Navoiy insonparvarlik kuychisidir.* 5. *Maqsadimiz yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashdir.*

5-namuna. She'riy parchani o`qing. Undalma va kirish so`zlarni aniqlab, tinish belgilarining qo`yilishini tushuntiring.

*Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she'rga solaman.*

*Sen yo`qolgan kuning shubhasiz,
Men ham to`ti bo`lib qolaman.*

(A. Oripov)

IZOHLI DIKTANT

1-namuna. Uyushiq bo`laklarni aniqlab, ulardagi qo`yilgan va qo`yilmagan tinish belgilarni izohlab bering.

1. Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilmparvar emishlar.

2. Zaynab bilan xushchaqchaq Huri,

 Adol bilan yallachi Nuri,

 Asal bilan o`yinchi Sora,

 Surma bilan quvnoq Ruxsora,

 Sarvi bilan dutorchi Gulnor,

 Qunduz bilan Suqsur va Anor

 Birga-birga qaytadi xandon.

3. Xirmonga katta yo`ldan yoki uvatdagi yolg`izoyoq yo`ldan boriladi. 4. Zumrad har bir notiqning so`zini qunt bilan ixlos bilan eshitgan edi. 5. Otabek onasiga bir qarab oldi-da, javob bermadi.

2-namuna. She`rni ifodali o`qing va mazmunini o`z so`zlaringiz bilan yozing. Unda qanday gaplarni qo`llaganingizni izohlang.

*Gul ochilar bahor chog`ida
Va to`lishar ona bog`ida.
Ona sevmas farzand topilmas,
Farzand yo`qdir onani sevmas.
Farzand guldir, ona bir bo`ston,
Shuning uchun jahon guliston.*

(Hamid Olimjon)

3-namuna. Do`slik haqidagi hikmat va maqollarni o`qib, sifatlarning ma`nosini izohlang.

Yaxshi do`s st dengiz qoyasiga o`xshaydi, u har qanday zarbalar yetganda ham mustahkam turadi.

Sodiq do`s st yetti xazinadan ham qimmat, uni avaylash kerak.

Chin do`s stingning ko`ngliga sira ozor berma.

Do`s st dardiga sherik bo`lgan odamni chin do`s st deb bilish kerak.

Yaxshi kunda birga yayrashib, yomon kunda ayrilishib ketadigan kishi xiyonotkor bo`ladi.

Sadoqatli do`s stlar ko`zga o`xshaydi, ikkisi baravar yig`lab, baravar kuladi.

Do`s st qadrini bilmagan chin do`s st topolmaydi.

4-namuna. Tushirib qoldirilgan so`z-gaplarni o`z o`rniga qo`yib, gaplarni ko`chiring. So`z-gaplar orqali ifodalangan ma`nosini izohlang.

1. *-Bugun palov pishirasizmi?.....* 2. *Eshitdingizmi, akam bizni restoranda ovqatlantirar ekanlar?!-*? 3. *Sening xonang juda shinam ekan-a?-* 4. *Ertaga kutubxonaga boramizmi?-*

5-namuna. Matnni o`qing, kesimlarni aniqlab, kesimlik shakllarini izohlang.

Amir sog`ayib, o`z vazifalarini o``tashga kirishgandan so`ng barcha tabiblarga mukofotlar berdi. Shunda ibn Sino bilan Buxoro amiri Nuh ibn Mansur o`rtasida shunday muloqot bo`lib o`tdi:

-Siz,-dedi amir,-bizga yaxshi xizmat qildingiz. Buning evaziga qanday mukofot istarsiz? Agar xohlasangiz, Buxorai sharif yaqinidagi qishloqlardan ko`nglingiz tilaganini sizga in'om etaylik. Yoki shaharda ko`rkam bir imorat qurib beraylik. Agar oltin-kumush desangiz, bo`yingizga barobar sochamiz.

-Amir hasratlarining marhamatlaridan benihoya minnatdorman,-dedi yosh tabib. -Sizdan bir o`tinchim bor. Yashamoqqa tayin joyim bor, qilgan mehnatim evaziga kunim o`tib turibdi. Bo`ym barobar oltin-kumush menga ortiqchadir, ammo agar bir xazinangizdan to`la foydalanishga ruxsat bo`lsa, bu men uchun katta mukofot bo`lardi.

-Qaysi biridan?-qiziqib so`radi amir.

-Kutubxonadan,- dedi Husayn.

(A. Qayumov)

LUG`AT DIKTANT

1-namuna. Quyidagi matnni qunt bilan o`qing. Undagi atoqli otlarni tanlab olib lug`at asosida tartibga keltiring.

O`zbekiston Respublikasi faxriy unvon, orden va medallari

Har bir xalqning, har bir mamlakatning o`z qahramonlari bo`ladi. Ularning Vatan taraqqiyoti yo`lida, iqtisodiyot va madaniyatni yuksaltirish sohasida va el farovonligi uchun qilgan xizmatlari ardoqlanadi, ulug`lanadi, mukofotlanadi.

Mustaqil O`zbekistonimizda ham ana shunday fidoyilar munosib taqdirlanadi. Shu, maqsadda istiqlol yillarida talay faxriy unvon, orden va medallar ta'sis etilgan.

"O`zbekiston Qahramoni" unvoni va "Oltin Yulduz" medali respublikamizning eng yuksak mukofotidir. Bu unvon O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 5-maydagi Farmoni bilan ta'sis etilgan va O`zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan bo`lib, davlat hamda xalq oldida qahramonona jasorat ko`rsatish bilan bog`liq xizmatlari uchun O`zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. "O`zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan shaxsga "Oltin Yulduz" medali va unvon berilganligi to`g`risidagi

hujjat topshiriladi. "Oltin Yulduz" medalini tantanali va keng oshkorali vaziyatida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki uning nomidan Oliy Majlis raisi, Bosh vazir topshiradi. Medal 585 probali oltin qotishmasidan tayyorlanadi va old tomonida har bir qirrasining ikki yonbag`ridan oltin nurlar taralgan, sakkiz qirrali yulduz shaklida bo`ladi. Markazidagi doira ichida O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbining ramziga monand yarim oy va o`n besh qirrali yulduz joylashgan, orqa tomoni markazida Davlat gerbining tasviri tushirilgan.

2-namuna. Berilgan matndan izohlovchilarni topib, uni lug`at asosida yozing.

Kasbim-faxrim

Qishlog`imiz hududi uncha katta bo`lmasa ham unda turli kasb egalari qadimdan istiqomat qiladilar. O`tmishdagi ota-bobolarining kasbi hozir laqab sifatida saqlanib qolgan Hayitvoy kavushchi, Masharip ko`nchi, Nurimbat zargar, Nazarboy uychi kabi kishilarning avlodlari yashaydi.

Keyinchalik turli kasb egalari Madamin doktor, Xolboy muallim, brigadir Saparboy, mexanik Reyimboy, traktorchi Karim kabi ustozlarining nomlarini hamma hurmat bilan tilga oladilar. Ularning farzandlari ham ota kasblarini ulug`lab katta obro` orttirmoqdalar.

Ayniqsa, agronom Jangaboy, duradgor Sa'dullo, usta Xudoybergan, o`qituvchi Qambar, haydovchi Rajabboylarning nomlari xalqimiz hurmatiga sazovordir.

Xullas, qishlog`imizda o`z kasbidan kamol topayotgan piri badavlat otalar juda ko`p.

3-namuna. O`qing. Asosiy fikr nima ekanligini aniqlab, lug`atdan foydalanib, uni o`z tilingizga tarjima qiling.

Til-so`zlovchi istagini tinglovchiga yetkazuvchi tarjimon... . Agar insonning so`zlash quvvati hamma joyga shamol singari yoyiluvchi bo`lmaganda edi va zamonalardan zamonalarga nafas singari o`tuvchi xat yozish san'atini keltirib chiqarmaganda edi, o`tmish zamonalarning xabarini, ayniqsa uzoq zamonalar o`tganda hozirgi zamon tillariga qanday ko`chirib bo`lar edi?

(Abu Rayhon Beruniy)

4-namuna. Quyidagi so`zlarning qoraqalpoqcha variantini topib, ularni alifbo tartibida yozing.

Davlat-
An'ana-
Himoya-
Manfaat-
Mukofot-

Rahmdil-
Supurgi-
Vazifa-
Choyshab-
Xotira-

5-namuna. Berilgan so`zlarni tovushga taqlid so`zlar hamda holatga taqlid so`zlar kabi ikki guruhga ajratib lug`at asosida yozing.

Gup-gup, qult-qult, vish-vish, taqa-tuq, jiring-jiring, g`uvv-g`uvv, shirt-shirt, qars-qurs, g`arch-g`urch, gumbur-gumbur, taqir-tuqur, shaqir-shuqur, duk-duk, tup-tup, yalt-yalt, yilt-yilt, lip-lip, mo`lt-mo`lt.

SAYLANMA DIKTANT

1-namuna. Matnni o`qing. Ajratilgan kesimlarning fe'l-kesim yoki ot-kesim ekanligini aniqlang.

*Nima eksang, shuni o`rasan
(Rivoyat)*

Rivoyat qiladilarki, Luqmoni hakim avval zolim va badjahl, qullariga shavqatsiz bo`lgan. Ekin paytida bir kuni qishloqda bahorgi ishlar qanday borayotganligi bilan tanishish uchun dalaga aylanib chiqibdi. Shunda bir dehqonning bug`doy ek deb buyurilgan yerga tariq sochayotganini ko`rib qolibdi. Luqmoni hakimning jahli chiqibdi: "Hoy, axmoq, to`xta. Sen jinnimisan?! Men gapirganda karmiding? Nega bu yerga tariq sochayapsan, bug`doy ek deb aytmaganmidim", - deb do`q qilibdi.

-Hojam, tariq ekyapman, xudodan tilaymanki, bug`doy unsin,-deb javob beribdi dehqon.

-Nodonsan-da,-debdi Luqmon. –Shuning uchun qulsan. Tariq eksang, bug`doy o`rasanmi?! Xudo ekkanningni beradi.

Shunda dehqon: -Hojam, axir siz bizga doim jabr-zulm qilish evaziga faqat yaxshilik, halol mehnat va mo`l hosil talab qilasiz-ku,-debdi.

Dehqonning gaplari Luqmonga qattiq ta`sir qilibdi.

2-namuna. Maqol va hikmatlarni ot-kesimga aylantirib yozing.

1. *Sog` tanda –sog` aql.*
2. *Salomatlik- tuman boylik.*
3. *Baxtimizning o`ndan to`qqiz ulushi sog`ligimizga bog`liq.*
4. *O`z vaqtida, me`yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo`lamaydi.*
5. *Ruhini davolamay turib, tanani davolab bo`lmaydi.*

3-namuna. Matnni o`qing. Fe'llarni aniqlang va tahlil qiling.

Avesto o`gitlaridan

Bu dunyoda boyliklarning har qanday ko`payishini ezgu ishlarga bog`lovchi kishilar odamlarning eng ulug`laridir. Qarindosh-urug`laringiz, do`srlaringiz, shuningdek, muholiflaringizga aytgan lafzingizning ustidan chiqing.

O`z oilangiz va urug`ingiz shonu shavkati uchun jirkanch yolg`onchilarga o`xshab yovuz fitkr, yovuz so`z va yovuz amallar urug`ini ekmang.

“Avesto”da aytilganiday: “Ezgu fikrlarni o`ylasa, ezgu so`zlarni so`zlasa, ezgu amallarni qilsa ezgulikdir”.

Zero, kim ezgu fikrlarni o`ylasa, nutqida ezgu so`zlarni so`zlasa, ezgu ishlarni amalga oshirsa, u o`z ruhiga ezgu fikrlar, ezgu so`zlar, ezgu amallar vositasida dunyolarning eng yaxshisini in’om etadi.

4-namuna. Matnni o`qing. Ot-kesimli gaplarni aniqlang vayozing.

Ona Yer

Tabiatning ajoyib tuhfasi Ona yerimizdir. Yer jamiki boyliklarning, ne’matlarning onasi hisoblanadi.

Tabiatni sevish, uni asrash, yon-atrofni ko`kalamzorlashtirish, bog`-urog`larda aylantirish ham Ona yerni sevish demakdir.

Nima uchun ona-Yer deymiz?

Shuning uchunki, dunyoga keliboq uning havosi bilan nafas olamiz. Birinchi qadamni uning bag`rida qo`yamiz. U sizni kiyintiradi, ardoqlaydi. Ona qo`ynida qanday yayrab-yashnasangiz, zamin taftida ham o`shanday unib-o`sasiz, voyaga yetasiz. Onangiz sut, otangiz tuz bersa, ona Yer non beradi, obihayot beradi. Shuning uchun ham u eng mo’tabar inson-Ona nomi bilan bog`lab aytiladi.

5-namuna. Matnni o`qing. Uyushiq bo`lakli gaplarni toping, qaysi bo`laklar uyushib kelganini ayting.

Kaklik

Kaklikni ko`pchilik yaxshi biladi. Uning tumshug`i va oyoqlari qizil. Kaklik o`troq yashashga moslashgan. Kaklik tez yuguradi, ammo uzoqqa ucha olmaydi. Kaklik respublikamizning deyarli hamma tog`larida uchraydi.

Qishda kakliklar doim gala bo`lib yashaydi. Tog`larga ko`p qor yog`ganda, Kakliklar daryo vodiylariga va qishloqlarning atroflariga tushadi. Aprelda kaklik oltitadan yigirmatagacha tuxum qo`yadi. Kaklikning tuxumdan chiqqan jo`jalari tovuq jo`jalari kabi ota-onasiga ergashib yuradi.

Kaklik odamga tez o`rganadi. Kakliklar zararli hasharotlarni qiradi va bu bilan katta foyda keltiradi.

(„Bolalar ensiklopediyasi”dan)

ERKIN DIKTANT

1-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. O`z tushunchangizni erkin turda bayon qiling.

Insho-ijodiy mehnat

"Insho" arabcha so`z bo`lib, uning ma'nosi "yaratish", "bino qilish", "qurish", "boslash" demakdir. Tilimizda bu so`zning ma'nosi ancha torayib, asosan, o`quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi.

Insho o`quvchining ma'lum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, o`z fikrlarini yozma shaklda to`g`ri, ravon, savodli bayon qila olish ko`nikma va malakalarini, shu mavzu bo`yicha bilimlarini namoyish etuvchi ijodiy matn-kichik bir asardir. Insho o`quvchi ma'naviyati va ma'rifati ko`zgusidir. Undan o`quvchining bilimlari, his-tuyg`ulari, fikrlarini bayon etish ko`nikma va malakalari o`z aksini topadi.

2-namuna. Quyidagi matn mazmunini saqlagan holda o`z bilganlaringizni erkin davom ettiring.

Nukus shahri

Nukus shahri Qoraqalpog`iston Respublikasi markaziy qismida Amudaryoning o`ng sohilida joylashgan. Dengiz sathidan 76 metr balandlikda. Janub va sharqda Qizilqum cho`li bilan o`ralgan. Shimolda Amudaryo deltasi bilan tutash. Qizketgan kanali shaharni kesib o`tadi.

Shaharning iqlimi kontinental, yozi quruq va issiq. Qish paytida qisqa muddatli qattiq sovuq bo`lib turadi.

Nukus shahrining umumiy maydoni 200 kv.km. dan ziyod, aholisi 370 ming kishidan ortiq.

3-namuna. Matnni qunt bilan o`qing. Biriktiruv bog`lovchisi qatnashgan gaplarni ko`chiring.

Ilmning foydasi shu qadar ko`pki, ta'riflagan bilan ado qilish mumkin emas. Bizlarni jaholat qorong`uligidan qutqaradi. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarib, yomon fe'llardan, bema`ni ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va adab sohibi qilib, Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni orttiradi.

Payg`ambarimiz: "Ilmga amal qiluvchilardan bo`lingiz, naql va rivoyat qiluvchilardan bo`lmangiz"-deganlar.

Ilm bir daryo-ichi to`lmish dur-u gavhar bilan

Qiymat-u qadrini qachon bilgan oni johil-yilon.

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir. Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj bo`lsang, shuni bilmoq bizga farzdir. Shuning uchun o`qimoq, bilmoq zamonlarini

qo`ldan boy bermay, vujudimizning dushmani bo`lgan jaholatdan qutulmoqqa jonimiz boricha harakat qilmog`imiz lozim.

(*Abdulla Avloniy*)

4-namuna. Alisher Navoiy ruboiy va baytalarini o`qib, mazmunini oddiy bayon usulida yozing.

*Har kishikim topsa davron ichra joh-u e `tibor,
Kim, aning zotida bedor-u sitam bo`lg`ayqilig`.
Yaxshilik gar qilmasa, bori yomonlig` qilmasa,
Kim yomonlig` qilmasa, qilgancha bordir yaxshilik.*

*O`lsam, yasamang munda mozorimni menin,
Yuklab eliting jismi figorimni menin.
O`tru chiqarib ahli diyorimni menin,
Quyida qo`yung tani nizoramni menin.*

5-namuna. Orol dengizi haqidagi she'rni o'qing va mazmunini o`z so`zlarining bilan hikoya qiling.

Orol

*Bormi sayyorada undan buyuk g`am,
Barchani qiynaydi shu mungli savol.
Bundan qutulishga qodirmi odam,
Bugun madadlarga muhtojdir Orol!*

*Haybatli kemalar uyilib yotar,
Kuni chiqmay turib kunduzi botar,
Xayollar bir olis moziyga tortar,
Turkiston yurtiga bir tojdir Orol!*

*Mavj urgan daryolar suv quymay qo`ydi,
Yon-atrof tuzlarning koniga to`ydi.
Shoirlar bu dardni shu taqlid yoydi
Bashar xatosiga bir bojdir Orol!*

(*Hamza Yoqubov*)

XOTIRA DIKTANT

1-namuna. Matnni ikki marta o`qing va xotirangizda qolganini yozing.

O`zbek tili-O`zbekiston Respublikasining Davlat tili

1989-yil 21-oktabr O`zbekiston Respublikasining Davlat tili to`g`risidagi Qonun qabul qilindi.

1993-yil 2-sentabr Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida Qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-7-may mazkur qonunga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritildi.

1995-yil 24-avgust O`zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to`g`risida Vazirlar Mahkamasining Qarori e`lon qilindi.

2-namuna. She`rni ifodali o`qing. Fe'l kesimlarni aniqlang va yoddan yozing.

Alisherning onasi

Bilmam qanday ayol bo`lgan

Balki buyuk farzandiga

Alisherning onasi.

Terib kelgan chechaklar.

Balki uning aqliga ham

Balki tunlar unga bedor

Lol qolgan zamonasi.

Aytib bergan ertaklar.

Balki uning ko`zlarida

Mayliga u kim bo`lmisin,

Bo`lgan og`ir bir xayol.

Yolg`iz bir so`z ma'nosi:

Balki g`amgin bir zotdir u,

Alisherning onasi u,

Balki sho`xchan bir ayol.

Navoiyning onasi.

(A. Oripov)

3-namuna. She`rni mag`zini chaqing va yoddan yozing.

Dunyoda ajib bir hikmat mavjuddir:

Agar bo`lmay desang baxtingdan judo,

Agar yashay desang rozi bir umr,

Vataning tinch bo`lsin, Vatan avvalo

Dunyoda ajib bir hikmat mavjuddir:

Agar bo`lmay desang Vatandan judo,

Munosib bo`la bil unga bir umr,

Vatanga joningni qilolgin fido.

(A. Oripov)

4-namuna. Matnni diqqat bilan takror o`qing va xotirangizni sinang.

Tasviriyy-insho

Bunday insholarda narsa va hodisalar, shaxslarga xos belgilari, ularning boshqalaridan farqlari ko`rsatiladi, taqqoslanadi. Emotsionallikni hosil qilish uchun

kishilar portreti va manzaralar tasviri badiiy ifodalanadi, o`xshatishlar, sifatlashlar ishlataladi. Shuningdek, unda oddiy tasvir elementlari ham unumli foydalaniladi.

Shaxslar va manzaralar ko`z oldiga keltirilib, ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriylar o`quvchilarning fikrini o`stiradi, ulardagi kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi.

(B. Turdiyev)

5-namuna. O`qituvchi, murabbiy va ustozlar haqida donolarning hikmatlarini qunt bilan o`qing va yoddan yozing.

*1. Haq yo`lida kim senga bir harf o`qitmish ranj ila,
Aylamak bo`lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

(A. Navoiy)

2. Ustoz suhbati-jon ozig`idir.

(S. Sheroziy)

*3. Kim yoshlikda ustoz jabrini chekmas,
Hayotda ko`p jafo cheksa ajabmas.*

(S. Sheroziy)

*4. Kimki shogirdlikka chin dilidan shod,
Bir kuni o`zi ham bo`lg`usi ustod.*

(N. Xusrav)

IJODIY DIKTANT

1-namuna. Quyidagi she`rni ifodali o`qing. Uning mazmunini o`z so`zingiz bilan bayon qilib yozing.

Navro`z

*Avval yuragingga mo`ralaydi u,
So`ngra kurtaklarga o`rgatadi so`z.
Zaminning ko`zidan qochadi uyqu,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro`z!*

*Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,
Yum-yum yosh to`kmoqda eriyotgan muz.
Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro`z!*

*Ona bag`ri kabi iliqidir olam,
Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.*

*Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig` g`am,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro`z!*

*Yana ko`ngillardan rutubat ketdi,
Yana shu'lalardan qamashmoqda ko`z.
Yana dildorlikning fursati yetdi,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro`z!*

(A. Oripov)

2-namuna. Quyidagi kiritmalarni ijodiy davom ettiring.

1. Aytishlaricha,
2. Xayriyat,
3. Masalan,
4. Inshoolloh,
5. Yaxshi hamki,

3-namuna. Savollarga yozma javob qaytaring. Atoqli otlarning yozilishiga diqqat qiling.

1. Yozuvchi va shoirlardan kimlarni bilasiz?
2. Mehnat qahramonlaridan kimlarni taniysiz?
3. Qaysi shahar va qishloqlarda bo`lgansiz?
4. Qaysi kanal, daryo, ko`l va dengizlarning nomini bilasiz?
5. O`zbekistondagi eng baland tog`lar qaysilar?
6. Siz qaysi viloyat, shahar, tumanda yashaysiz ? Shaharda yashasangiz, ko`changizning nomi nima?

4-namuna. Baytlarni o`qing, she'riy gaplarni nasriy gaplarga aylantirib yozing.

*Navbahor: ochildi gullar, sabza bo`ldi bog`lar,
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo`ralar, o`rtog`lar.*

(Muqimiy)

*Ochinglar, millati vayronani obod etgusi maktab,
O`qusin yoshlarimiz, ko`nglini shod etgusi maktab.*

(Avaz O'tar)

5-namuna. Berilgan gaplarni to`g`ri joylashtirib gaplar tuzing.

1. Urf-odatlari, navro`zning, bo`lgan, o`ziga, xos.
2. Dalalarda, ketgan, bu paytda, boshlanib, ekin-tikin, ishlari.

3. Maxsus, atab, kiyimlar, ajdodlarimiz, bayramga, tayyorlashgan.
4. Taomlari, o`ziga, navro`z, xos bo`lgan.
5. Orasta, atrofini, oila, har bir, qilgan, o`z.
6. Bayrami, avloddan-avlodga, Navro`z, kelmoqda, asrlar osha, o`tib.

GRAMMATIK TOPSHIRIQLI DIKTANT

1-namuna. Nuqtalar o`rniga mos so`zlarni qo`yib, gaplarni ko`chirib yozing.

1. Mirzo Ulug`bek boshqa temuriylardan fidoiyligi bilan ajralib turadi.
2. Furqat Muqumiyydan ko`proq ma'rifat mavzusida she'rlar yozgan. 3. Jadidlarda zulmni ma'rifat bilan yengishga ishonch kuchli edi. 5. Farzandlarimiz bizdan kuchliroq, bilimliroq bo`lishlari shart.

2-namuna. Nuqtalar o`rniga mos so`zlarni topib yozing va mazmunini yozing.

1. har bir inson uchun muqaddas.
2. oltindan qimmat.
3. Erta ekkan, o`rar.
4. Salomatlik- boylik.
5. Kitob- manbayi.

3-namuna. Nuqtalar o`rniga uyusiq bo`laklarni qo`yib ko`chiring, zarur tinish belgilarini qo`ying.

1. mustaqil so`z turkumlaridir.
2. yordamchi so`z turkumlaridir.
3. gapning bosh bo`laklaridir.
4. gapning ikkinchi darajali bo`laklaridir.

4-namuna. Nuqtalar o`rniga mos so`zlarni qo`yib, gaplarni ko`chirib to`ldiring.

Har bir insonning o`z orzusi bo`ladi, U bu orzusiga erishish uchun ko`p mehnat qiladi-o`qiydi, izlanadi. Intilganga tole yor. ” holva degan bilan og`iz chuchimaydi”, - deydi dono xalqimiz. Orzuga erishish uchun, orzu bo`lishi kerak., uni amalga oshirish rejasi bo`lishi lozim., orzusi ro`yobga chiqqan inson juda baxtlidir.

Nuqtalar o`rniga qo`yiladigan so`zlar: albatta, bizningcha, shunday bo`lishi tabiiy, birinchidan, ikkinchidan, zero.

5-namuna. Suv va obodonchilik to`g`risidagi maqol va hikmatlarni o`qing, mazmunini izohlang, so`ng ona tilingizga tarjima qiling.

1. *Suvga tupurma, suvsiz qolasan.*
2. *Daryo suvini bahor toshiradi,*
Odam qadrini mehnat oshiradi.
3. *Har kim o`z yerini gulzor qilsa, butun olam gulga burkanadi.*
4. *Kishining qanchalik sog`lom, nosog`lom bo`lishi havo, iqlim va yashash tarziga bog`liqdir.*
5. *Asosiy dori-darmonlar-sof havo, sovuq suv, arra bilan bolta.*

Nazorat diktant

Baxtimiz qomusi

Konstitutsiya har bir davlatning ramzlaridanbiri. Konstitutsiya so`zi "tuzilish, qurilish" degan ma`noni bildiradi

O`zbekiston ham o`z davlat mustaqilligiga erishgach asosiy qonun-Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu tarixiy voqeа 1992-yilning 8-dekabrida sodir bo`ldi.

Yangi O`zbekistonning Konstitutsiyasi jahonnig ilg`or davlatlari tajribasini o`rganish asosida yaratildi. U muqaddima, 6 bob, 28 bo`lim, 128 moddadan iborat.

Asosiy qonunimizda fuqarolar huquq va erkinliklari, majburiyatlari belgilab berilgan.

Unda O`zbekiston xalqini millati, e`tiqodi, dini, jinsidan qat'i nazar O`zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etishi mustahkamlab qo`yilgan. Shuningdek, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekani aytilgan.

O`zbekiston Konstitutsiyasi ozod va obod Vatan, farovon hayot qurishimizning huquqiy asosi va kafolati bo`lib xizmat qiladi.

Toshkent

Toshkent-juda qadimiy va navqiron shahar. Uning yoshi 2000 yildan oshib ketgan. U tarixda Choch, Shosh, Binkent kabi nomlar bilan atalgan.

Toshkent-go`zal shahar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida uning chiroyi yanada ortib bormoqda. Ko`plab yangi binolar, ko`chalar barpo etilmoqda.

1997-yilda Toshkent metrosining birinchi yo`nalishi ish boshlagan. Hozirda uning Chilonzor, O`zbekiston va Yunusobod yo`llari bo`ylab poyezdlar qatnovi yo`lga qo`yilgan. Uning Alisher Navoiy, Amir Temur xiyoboni, Chorsu, Chilonzor kabi go`zal va ozoda bekatlari kishi ko`zini quvontiradi.

Toshkentda ko`plab madaniy muassasalar mavjud. Bog`lar, teatrlar, konsert zallari xalqimiz xizmatida. Toshkentda bir qancha muzeylar faoliyat yuritmoqda. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi shular jumlasidandir. Ular xalqimizning boy tarixi va bugungi yutuqlari haqida hikoya qiladilar.

To`maris

To`maris huzuriga Eron shohi Kirdan elchilar keldi. U elchilarni yaxshilab mehmon qilib, shohga “sovga” berib yuboribdi.

Kir dasturxonni ochib ko`rsa, uning ichida o`q-yoy, sichqon, baliq va qush jasadi bor edi. Eroniyalar bunga o`zicha ta`rif berishdi:

-Massagetlar bizga taslim bo`lishmoqchi, o`q-yoy-bu bizning timsolimiz, anavi narsalar esa yovvoyilardir,-deyishdi.

Shunda podshohning dono maslahatchilaridan biri “sovga”ni quyidagicha izohladi:

-Bular ogohlantirish. Ular: “Ey bosqinchilar, baliqdek suvga sho`ng`ib, sichqondek yerga kirib, qushdek osmonga uchib, tezda yurtimizdan yo`qolmasalaring bizning o`q-yoyimiz ostida halok bo`lasanlar!” demoqchi, dedi.

Kir gapga quloq solmadi va oxiri sharmandalarcha yengildi.

Abu Ali ibn Sino

Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Ali ibn Sino garchi Buxoroning kichikkina Afsona qishlog`ida tug'ilgan bo`lsa-da, vaqt o'tib uning dovrug`i olamni tutdi. Asli Xorazmlik bo`lgan va Buxoroda yashab ijod qilayotgan an-Notiliyga shogird tushishi uning ibn Sino bo`lib dovrug taratishiga sabab bo`ldi. U hatto ustozidan ham o`zib ketdi. Bu haqida hakimning o`zi: “Notiliy qaysi masalalarni mendan so`ramasin, men u masalani undan ko`ra durustroq tasavvur qilardim. Nihoyat, undan mantiqning yuzaki masalalarini o`qidim, lekin mantiqning nozik tomonlari unga noma'lum edi” deya yozgandi.

Darmon meva

O`rik qadim-qadimdan xushxo`r, to`yimli, shu bilan birga, shifobaxsh ne'mat sifatida ma'lum va mashhur. Xalq tibbiyotida o`rik mevalari kishiga darmon bag`ishlovchi, a'zolarni mustahkamlovchi sifatida tavsiya etiladi. O`rik mevasi, jumladan, turshak va bargak kamqon bemorlar uchun juda foydalidir. Chunki o`rik tarkibi temir moddasiga boy. Keksalar turshak damlamasini xush ko`radilar. Darhaqiqat, uning tarkibida mavjud bo`lgan foydali moddalar oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi.

Xalq tabobatida o`rik mag`zi ham davo hisoblanadi. Jumladan, yurak og`riganda, xafaqon kasalligida o`rik mag`zidan choy damlab ichish tavsiya etiladi.

Mundarija

Kirish.....	3
5-sinflar uchun Ta'kidiy diktant.....	4
6-sinflar uchun Ta'kidiy diktant	15
7-sinflar uchun Ta'kidiy diktant.....	29
8-sinflar uchun Ta'kidiy diktant	44
9-sinflar uchun Ta'kidiy diktant	59

Tuzuvchilar:

Bo'ronova Shohista Mengliboevna - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili kafedrasi

Yusupova Gulora Ataxanovna - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili kafedrasi

Baymenova Kamshat Saparbaevna - Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi

DIKTANTLAR TO'PLAMI

(Ta'lif qoraqalpoq tilida olib boriladigan umumta'lif maktablari uchun qo'llanma)

Bosh muharrir K.M.Koshanov

Tex. redaktor H.K.Shamuratova

Korrektor A.M.Saribaeva

Operator N.Nisanbaev

Ajiniyoz nomidagi NDPI tahririyat-nashr bo`limi

Ajiniyoz nomidagi NDPI bosmaxonasida chop etilgan 2018-y.
Buyurtma № 0272. Adadi 100 dona. Bichimi 84/64 . Hajmi 5,0 b.t.
230105 Nukus shahri, A.Dosnazarov ko`chasi-104. Reestr № 11-3084.